

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**  
**Jismoniy madaniyat fakulteti**  
**PEDAGOGIKA KAFEDRASI**

**“HIMOYAGA TAVSIYA ETILSIN”**  
**JISMONIY MADANIYAT**  
fakulteti dekani \_\_\_\_\_F.QAXXOROV  
“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2012 YIL

**Hamrayev Bekzod Choriyevich**

**«O‘quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishda  
interfaol usullarning ahamiyati»**

5141900 - Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha  
bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISH**

**Ilmiy rahbar:**

**dots. Xaydarova O.Q.**

**QARSHI – 2012 yil**

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. O‘QUVCHILARDA INTERFAOL USULLAR ASOSIDA ERKIN FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.	
1.1. O‘quvchilarda interfaol usullar asosida erkin fikrlashni shakllantirish pedagogik muammo sifatida.....	10
1.2. O‘quvchilarda interfaol usullar asosida erkin fikrlashni shakllantirishning joriy holati.....	20
I-bob yuzasidan xulosalar.....	24
II BOB O‘QUVCHILARDA INTERFAOL USULLAR ASOSIDA ERKIN FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI VA UNING SAMARADORLIGI.	
2.1 O‘quvchilarda interfaol usullar asosida erkin fikrlashni shakllantirish interfaol omillari.....	25
2.2. Innovatsion yondashuv asosida hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari sohasida olib borilgan ishlar tahlili.....	33
II -bob yuzasidan xulosalar.....	48
Xulosa.....	50
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	52

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi:** Mustaqil va erkin fikrlaydigan erkin shaxsning shakllanish mustaqil O‘zbekistonning kelajagi, uning demokratik jamiyat sifatida taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli hozirgi kunda o‘qituvchi-tarbiyachilar oldida mas’uliyatli vazifalar turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch“ nomli asarida: “Yoshlarni o‘z fikriga ega, turli ma’naviy hurujlarga qarshi sobit tura olishiga qodir bolgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishish mumkin Bu borada ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarining ta’sirchanligini ta’minlaydigan zamonaviy infarmatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qollanmalarni tayyorlash bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini chiqyr tushunib olishimiz zarur”-deb ta’kidlagan<sup>1</sup>.

Bu ishlarni amalgam oshirish uchun ta’lim-tarbiya sohasiga e’tiborni kuchaytirish zarur.

Erkin va qulay muhit o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro bir-biriga hurmat, ishonch va o‘zaro shaxs sifatida tan olish hissi paydo bo‘lgandagina namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchi zimmasiga vatan kelajagi bo‘lgan avlodni erkin va mustaqil fikrlaydigan, milliy istiqlol g‘oyasi bilan qurollangan, milliy g‘ururi baland qilib tarbiyalashdek vazifa turgan ekan, bunday mas’uliyat o‘qituvchidan yanada yaxshiroq va fidoyilik bilan ishlashni talab qiladi. O‘sib kelayotgan yosh avlodda mustaqillikni shakllantirish, sog‘lom va barkamol shaxsni tarbiyalash ustoz-murabbiylarning muhim burchidir. Shu bilan birgalikda ta’lim tizimini ham o‘qituvchilar va chet el ta’lim tizimi yutuqlari asosida qayta qurish lozimdir. Shu davrgacha mavjud bo‘lgan o‘qitish tizimi ko‘proq xotirani rivojlantirishga qaratilgan. Ko‘pchilik o‘qituvchilar bir mavzuni tushuntirib, tayyor holda o‘quvchilarga yetkazib beradilar, ya’ni asosiy axborot manbai o‘qituvchi. Ertasiga shu mavzuning mazmunini so‘raydilar. Bunday ta’lim shaklida mustaqil ishlardan kam foydalaniladi, muammoli ta’lim elementlari deyarli uchramaydi. Natijada o‘quvchilarga mustaqil ishlash uchun imkon berilmaydi.

O‘qituvchilarning ko‘pchiligi o‘quvchilarda erkin fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning yo‘l va vositalari bilan tanish emaslar. Zero, yosh avlodni ruhan sog‘lom, ma’nan yuksak, ma’rifatli inson qilib tarbiyalashda ularni erkin ishlashga o‘rgatish kerak.

Zamon talabiga mos yetuk kadrlarni tarbiyalash zarurati maktab ta’lim mavqeini ham o‘zgartirdi. Chunki yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda maktab ta’limining o‘rni beqiyosdir.

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch“.. T.: Ma’naviyat ,2000, 127-bet

Shuning uchun ham ta'lim tizimini, xususan maktab ta'lim tizimini tubdan isloh qilish masalasi dolzarbdir. Prezidentimiz I.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqida shunday degan edi: "Eski qolipda mustabid davrda yozilgan darsliklardan foydalanib, eski mafkuradan xalos bo'lmasdan, bolalarimizni yangicha fikrlashga o'rgata olmaymiz. Buni barchamiz tushunishimiz, anglashimiz darkor. Shu o'rinda hozirgi kunda bizga bitiruvchi pedagog emas, bizga tajribali, o'z nutqiga, bilimiga ega bo'lgan murabbiylar kerak. Shundagina ular o'quvchilarga qachondan boshlab, qaysi sinfdan boshlab mustaqil fikr yuritishga o'rgatish kerakligini biladilar. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat ekanligini yaxshi tushunamiz, lekin afsuski, tajribamizda unga rioya qilmaymiz".<sup>2</sup>

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni aytishimiz mumkinki, maktab o'quvchilarini erkin ishlashga o'rgatish uchun, avvalambor o'quvchilarni yuksak malaka bilan qurollantirish kerak. Jumladan, mustaqil ish turlari va ulardan foydalanish yo'llari, mustaqil ishlarning o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatishdagi o'rni haqidagi nazariy va amaliy bilimlar ham o'qituvchi uchun muhim hisoblanadi.

Ta'limning barcha yo'nalishlari sohalari ilg'or pedagogik texnologiya va uni o'quv jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli axborotlar bilan qurollantirish maqsadida yaratildi.

Ta'lim tizimida muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan pedagogik texnologiya va interaktiv metodlarning mohiyati, uning odatdagi o'qitish usullaridan farq qiluvchi jihatlari, O'zbekiston ta'lim tizimiga uni joriy etishning ahamiyati, interaktiv metodlar shakllari, ularni tuzish hamda pedagogik texnologiyaning tamoyillari va qoidalari, o'quv materialini to'la o'zlashtirish g'oyasini vujudga kelishi va uning amalga oshirish usullari bayon etilgan. Vazirlikning darslik (o'quv qo'llanma) yozishga qo'ygan talablariga muvofiq holda, har bir mavzuga oid mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar va turli shakldagi interfaol metodlar berilgan.

Ta'lim jaryonida interfaol metodlarni qo'llash uchun tuzilgan topshiriqlar faqatgina o'zlashtirishni nazorat qilibgina qolmay, balki o'rgatuvchi (o'qituvchi) funksiyani ham bajaradi. Chunki bu topshiriqlarini yechish jarayonida mavzularni mustaqil ravishda erkin o'zlashtirishga ham erishiladi.

Interaktiv usullar va ularning o'quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishdagi o'rni shundan iboratki, u ta'lim jarayonida erkin va demokratik vaziyat yaratadi.

Interfaol usullar asosida tashkil qilingan dars o'quvchilarning faqatgina ehtiyojini qondirib qolmay, balki ularni mustaqil fikrlashga, o'z-o'zini nazorat qilishga, o'z g'alar fikrini eshitib, mushohada qilishga, o'z fikrini erkin namoyish qilishga da'vat etadi, intellektual faolligini oshiradi.

---

<sup>2</sup> I.Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori –T.: Sharq, 1997 8-9 betlar

Intellekt (latincha intellectus – ya’ni aql, idrok, zehn) degan ma’noni anglatadi. Bu degani kishining bitta bilish faoliyati, tor ma’noda tafakkuri, fikr yuritish jarayonini shakllantirish demakdir.

Demak, ta’lim jarayoni interaktiv metodlar orqali yuksak saviyada tashkil etilsa o’quvchilardada intellektual faollik namoyon bo’ladi. Intellektual faollik esa o’quvchilarning har tomonlama tayyorgarlik ko’rishiga, biror bir kasb egasi bo’lib yetishishida erkin fikrlashni shakllanishida yordam beradi.

Zamonaviy pedagogikaning vazifasi o’quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishda ta’lim jarayoniga yangiliklarni qo’llashni talab etmoqda. Chunki bugungi kunda ta’lim jarayonida yangiliklarni joriy etish yaxshi samara bermoqda.

Bo’lajak mutaxassis tayyorlashda ta’lim jarayonini interaktiv metodlar asosida tashkil etish haqida fikr yuritilishi tasodifiy hol emas. Interaktiv metodlar asosida o’qitishni yo’lga qo’yish, ta’lim jarayonini o’quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli sohalarini yaratish uchun tinimsiz izlanish o’qituvchining muhim vazifasi bo’lib qolmoqda. Shunday qilish kerakki, o’quvchilar pedagogik jarayonning faol subyektlariga aylansinlar.

**Tadqiqotning o’rganilganlik darajasi:** O’rganilgan adabiyotlar tahlili, shuningdek, ta’lim amaliyoti shuni ko’rsatadiki, pedagogik zukkolik, yangilikka intiluvchanlikning paydo bo’lishi, shakllanishi, rivojlanishiga qiziqish tobora oshib bormoqda.

Pedagogik texnologiyani o’quv jarayoniga joriy etishga ham turlicha yondashuvlar sodir bo’lmoqda. O’tgan asrning 60-yillarida AQSH (B. Blum, D. Kravol, N. Gronland, J. Kerrol) da yaratilgan va jahondagi 30 ga yaqin mamlakatlar ta’lim tizimida pedagogik texnologiya muvaffaqiyatli qo’llanib kelinmoqda, shuningdek uning mohiyati, uning nazariy asoslari, o’ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Pedagogik texnologiya bo’yicha xorijiy mutaxassis olimlar bilan bir qatorda respublikamizning pedagog olimlari S.Ashirbayev., N.S.Sayidaxmedov, R.H.Jo’rayev, B.L. Farberman, M.Ochilov va boshqalar tomonidan ham samarali ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Mamlakatimiz o’quv yurtlarida ham pedagogik texnologiyaga qiziqish ortib unga turlicha qarashlar va bu tushunchani o’ziga xos talqin qilishlar, shuningdek, pedagogik texnologiyani o’quv jarayoniga joriy etishga ham turlicha yondashuvlar sodir bo’lmoqda

Kasbiy mahoratning shakllanishi va pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorlikni D.I.Arziqulov, R.SH.Axlidinov, R.Z.Asamova, T.S.Derkach, S.F.SHerbak, M.Y.Ismoilova, B.X.Rahimov, B.R.Jo’rayeva, K.M.Yuldashevlar o’rganganlar.

Bo’lajak o’qituvchilar shaxsini professional-pedagogik va axloqiy shakllantirish muammosiga qiziqish kuchaydi. Bu yo’nalishlarda J.G’.Yo’ldoshev, M.Ochilov, T. G’afforova,

Xolboy Ibragimov, H.Abdukarimov J.S.Toshmatova, K.M.Yo‘ldoshev D.X.Nasriddinova kabilar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Yuqorida keltirilgan ishlarda bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining professional xususiyatlarini, pedagogik mahoratni shakllantirish va yoshlarni axloqiy tarbiyalash muammosi yo‘nalishida birmuncha ilmiy-pedagogik tadqiqotlar bajarilgan. Lekin interfaol usullar va ularning o‘quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishdagi o‘rni tadqiq etilmagan.

Shularni hisobga olib biz bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini **“O‘quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishda interfaol usullarning ahamiyati”** deb tanladik.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi:** Interfaol usullar va ularning o‘quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishdagi o‘rnini nazariy asoslash va amaliy ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti::** Interfaol usullar va ularning o‘quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishning mazmuni, shakl va usullari.

**Bitiruv malakaviy ishining obyekti:** Interfaol usullar asosida o‘quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirish jaryoni.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:**

1) ilmiy pedagogik adabiyotlar, tadqiqotlarni o‘rganish orqali interfaol usullar asosida o‘quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishning nazariy asoslari va omillarini aniqlash;

2) interfaol usullarning o‘quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishdagi o‘rnini ilmiy tahlil etish;

3) interfaol usullarlar va ularning o‘quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishdagi o‘ziga xos xususiyatlarini va uni faollashtirish omillarini, interfaol usullarni tashkil etishga tayyorgarlik motivlari va ularni rivojlantirish yo‘llarini tahlil etish;

4) interfaol usullar va ularaning o‘quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishning amaliyotdagi darajasini tadqiq etish;

5) interfaol usullarning o‘quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirish tizimini ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlash.

**Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati:** Pedagogika nazariyasi kursi interfaol usullar va ularning o‘quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishga yo‘naltirilgan nazariy qarashlar va yondashuvlar bilan boyitildi. Shuningdek, interfaol usullar asosida o‘quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirish motivlari, ularni rivojlantirish yo‘llari belgilab berildi.

Tadqiqot natijasida interfaol usullar asosida o‘quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishga oid ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar va uzluksiz ta‘lim tizimda, pedagogik yurtlarida bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlashni takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi:**

1) ilmiy pedagogik adabiyotlar, tadqiqotlarni o'rganish orqali interfaol usullar asosida o'quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishning nazariy asoslari va omillarini aniqlandi;

2) interfaol usullarning o'quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishdagi o'rini ilmiy tahlil etildi;

3) interfaol usullarlar va ularning o'quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishdagi o'ziga xos xususiyatlarini va uni faollashtirish omillarini, interfaol usullarni tashkil etishga tayyorgarlik motivlari va ularni rivojlantirish yo'llarini tahlil etildi;

4) interfaol usullar va ularaning o'quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishning amaliyotdagi darajasini tadqiq etildi;

5) interfaol usullarning o'quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirish tizimini ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlandi.

**Bitiruv malakaviy metodologik asosi:** O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi", "Oliy ta'lim konsepsiyasi", "Pedagogik ta'lim konsepsiyasi", "Umumiy ta'lim konsepsiyasi", Sharq mutafakkirlarining o'qituvchi faoliyati haqidagi yondashuvlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari, asarlarida o'qituvchilar, ularni tayyorlash, ta'limni takomillashtirish haqidagi bayon qilingan fikrlari, O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus hamda xalq ta'limi vazirligining bo'yruqlari hamda mavzuga oid pedagogik-psixologik manbalar.

Tadqiqot ishida kuzatish, suxbat, intervyu manbalarini o'rganish, taqqoslash, eksperiment kabi **ilmiy tadqiqot metodlaridan** foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishning hajmi:** kirish, 2bob, 4 paragraf, xulosa, adabiyotlar ro'yxatidan iborat 56 bet qo'lyozma va ilovalardan tashkil topgan.

## **I БОБ. О‘QUVCHILARDA INTERFAOL USULLAR ASOSIDA ERKIN FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.**

### **1.1. O‘quvchilarda interfaol usullar asosida erkin fikrlashni shakllantirish pedagogik muammo sifatida.**

Pedagogik texnologiyaning tub mohiyati, o‘qitishning an’anaviy, o‘qituvchi tomonidan bayon qilish, talabalarga tayyor bilimlarni berish usulidan voz kechib talabalarni ko‘proq mustaqil ta’lim olishga undashdan iborat. Bunda o‘qituvchi talabalar bilish faoliyatining boshqaruvchisi, maslahatchi, yakuniy natijaga yo‘lovchi shaxs vazifasini bajaradi. Pedagogik texnologiyaning samaradorligi yana shundan iboratki, unda turli o‘qituvchilar muayyan fan (mutaxassislik bo‘yicha) bir xil (deyarli bir xil) yakuniy natijaga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa barcha o‘quv yurtlariga yagona Davlat ta’lim standarti talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash vazifasi yuklatilgan hozirgi davrda biz, o‘zbekistonlik pedagoglar, uchun nihoyatda muhimdir.

Bizga ma’lumki, O‘zbekiston hukumati, shaxsan muhtaram Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan o‘q, ayniqsa, so‘nggi yillarda ma’naviyat va ma’rifat masalalari va ta’lim tizimini takomillashtirib, uni jahon andozalariga muvofiqlashtirish bo‘yicha ibratli ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Shuni ta’kidlash lozimki, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan barcha o‘quv yurtlarida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha aniq maqsad sari samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 1997 yil aprel-iyun oylarida o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy seminarlar dasturida pedagogik texnologiyani o‘quv jarayoniga joriy etish masalasi o‘z aksini topgan. O‘sha yili avgust oyida «Muammolar» institutida «Ilg‘or pedagogik texnologiyalar» bo‘yicha jadallashtirilgan kurs tashkil qilinib, unda professor B. L. Farberman qiziqarli ma’ruzalar o‘qidi. U ta’kidlaganidek: «Ko‘p bosqichli ta’lim tizimi, yangi standart va o‘quv dasturlari joriy etilayotgan hozirgi davrda o‘qitishni eskicha uslub bilan olib borishga yo‘l qo‘ymaslik kerak».

Xo‘sh, ilg‘or pedagogik texnologiya o‘zi nima, uning an’anaviy o‘qitish usulidan qanday afzalliklari bor?

Ilg‘or ijodkor pedagoglar tomonidan an’anaviy ta’lim texnologiyasidagi kamchiliklarga javob topish, samarali uslublarini takomillashtirish, o‘quvchining aqliy mehnatini amalga oshirish usullarini izlashlari natijasida o‘ziga xos ta’lim usuli vositalari yaratildiki, buning oqibatida yangicha pedagogik fikrlash tarzi vujudga keldi.

Ana shu izlanishlar zahirida yangi pedagogik texnologiyaga asos solgan pedagogik texnologiyalar yaratila boshlandi. Qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarni bir tizimga solish,

unga maqsadli yoʻnalish berish taʼlimni amalga oshirishdagi shakl va mazmun yaxlitligini taʼminlagan holda kutilishi zarur natijani olishni belgilaydi.

Oʻqitishning mavjud uslublari koʻp hollarda oʻquv jarayonini tashkil etish va olib borishga oid tavsiyalar majmuidan iborat boʻlsa, pedagogik texnologiya asosida interfaol usullardan foydalanish bundan farqli oʻlaroq, birinchidan, yakuniy natijani kafolatlaydi, ikkinchidan esa boʻlajak oʻquv jarayonini ham loyihalaydi. «Pedagogik texnologiya oʻquv maqsadlarning aniq belgilanishi, yakuniy natijaning kafolatlanishi, oʻquv jarayoni takrorlanuvchanligining taʼminlashi va tezkor qaytuvchan aloqaning mavjudligi bilan xarakterlanadi».

Oʻquv maqsadlari pedagogik jarayonni tashkil etuvchi qismlarning eng muhimi, yetakchisi boʻlib hisoblanadi. Pedagogik jarayon oʻzining qanchalik murakkabligi va davomiyligidan qatʼiy nazar, u, eng avvalo, maqsadni aniqlashdan boshlanadi.

Taʼlim jarayonida oʻqituvchilar ham oʻquvchining barcha imkoniyatlarini roʻyobga chiqarishga harakat qilishlari muhim ahamiyatga ega.

Innovatsiya orqali oʻqitish jarayoni oʻqituvchi va oʻquvchining oʻzaro munosabatlari optimallashtiradi. Bunda har ikkala shaxs ham faol ishtirokchiga aylanishi koʻzda tutiladi. Taʼlim jarayonining samaradorligi esa ushbu oʻzaro munosabatlarning qanday boʻlishiga bogʻliq, albatta.

Taʼlim jarayonida interaktiv usullardan foydalanish mantigʻida ikki xil gʻoya yotadi:

a) oʻquv jarayonini toʻla-toʻkis oʻrgatuvchi mashinalarga oʻtkazib, unda asosiy rol oʻynaydigan oʻqituvchini toʻla ozod qilish;

b) uning faoliyatini tashkil etish va maslahat berish funksiyalari bilan chegaralash.

Shuning uchun ham oʻqitish mazmuni va jarayoni boʻyicha mutaxassislar guruhi tomonidan ishonchli boʻlgan oʻqitish tizimlarini rejalash, yaratish va ularni qoʻllashga tayyorlangan sharoitda, hatto «oʻrtacha» oʻqituvchi ham yuqori natijalarga erishishi mumkin.

Taʼlimning amalga oshirish jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni kiritish quyidagilarga asoslanadi:

- taʼlim jarayonida ishtirok etuvchi oʻquvchi shaxsi ustivorligini taʼminlash;
- taʼlim maqsadining natijaga erishuvini (kafolatlanganligini) amalga oshirish;
- taʼlim jarayoni boshqariluvchi jarayon ekanligidan kelib chiqqan holda uning maqsadli boshqariluviga erishish;
- taʼlim mazmunini taʼminlovchi vosita, usul shakllari texnologiyasini yagona bir tizimga keltirish.

Yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Uzluksiz malaka oshirish;
- Muntazam tahlil qilib borish;

- Loyihalashtiruvchi vositalarning eng zarurini tanlash;
- Tanlangan usublarning maqsadga muvofiqligini aniqlay bilish(ta'lim metodlari);
- Olinishi zarur bo'lgan natijani oldindan taxmin qilish(kafolatlangan maqsadga erishish);
- Ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlash.

Yangi pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi, o'quv jarayoniga bir qator yangi elementlarni olib kiradi va bular quyidagilar:

- O'quv birliklarini(mezonlar) belgilash;
- Diagnostik tahlil;
- □ Tuzatish kiritish;
- Qayta ishlash(to'ldirish);
- Kutilishi lozim bo'lgan(kafolatlangan) natijani olish;
- Reyting(taqqoslash).

Yuqoridagi tamoyillar va elementlarga asoslangan holda va yangi pedagogik texnologiyalarni ta'limga joriy etish, ayniqsa rivojlangan davlatlardagi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, ta'limiy pedagogik texnologiya tizimini yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni umumlashtirish va ta'lim jarayonida qo'llash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

1. Ta'lim jarayonining ishtirokchilari – pedagog va o'quvchi o'rtasida o'quv mehnati rejasini ishlab chiqish: ya'ni pedagog bo'lim yoki bobni o'rganish rejasini tuzar ekan, ushbu rejada o'quvchi faoliyat o'z aksini topmog'i kerak.

2. Fanning ichki bog'lanishi yoki fanlararo bog'lanish imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish. Ma'lumki, har bir o'rganiladigan kichik yoki yirik o'quv birliklari oldin o'rganilganlariga tayanadi. Demak o'quvchini yangi bo'lim, bobni o'rganishga olib kirishda undagi mavjud bilimlarga tayanish, agar mavjud bilimlar yangi bobni, bo'limni o'rganishga yetarli bo'lmasa «oraliq tayyorgarlik» olib borish va shundan keyingina o'quvchini bilimlarini o'rganishning navbatdagi bosqichiga olib kirish lozim. Bunday ishlash yangi pedagogik texnologiyaning asosiy elementlaridan biri diaqnoz(tashhis) hisoblanib, o'quvchilarning yangi bilimlarini o'zlashtirish qanchalik darajada tayyor ekanliklarini aniqlashdan iborat.

**3. O'quv birliklari(mezonlari)ni belgilash.** O'quv birliklari o'quvchi tomonidan o'rganilishi lozim bo'lgan tushunchalar, ta'riflar, qoidalar, qonunlar, hodisalar, voqealardan iborat bo'lib, ular orasidagi mantiqiy bog'lanishning ta'minlanishi shu bob yoki bo'limning o'zlashtirilishiga olib keladi. O'qituvchi bob,bo'lim uchun ajratilgan soatlarda o'quvchilar o'rganishi kerak bo'lgan o'quv birliklarni aniqlaydi, u uchun ajratilgan vaqtni belgilaydi. O'quv

birliklari o'zlashtirilishi(bilishi) zarur bo'lgan mezonlar hisoblanib, o'quvchi bilimni baholashning chegaraviy qiymati bilan o'lchanadi, ya'ni o'quvchi ushbu ko'rsatilgan mezonlarni bilsagina baholanadi.

O'qituvchi shu paytda guruhga nisbatan o'rtacha baho bilan ishlaydi, balki aniq o'lchovlarga asoslangan holda ish olib boradi. Shuning uchun ham o'quv birliklarini bilish o'quvchi uchun zarur top shiriqqa aylantiriladi. Dars rejasini tuzishda o'qituvchi o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan o'quv birliklarini bo'limlar, boblar, semestrlar bo'yicha aniqlaydi va o'quvchilarga topshiriq sifatida bo'limni o'rganishdan oldin vazifa qilib beradi. Berilgan topshiriqlar o'zlashtirish reytingini aniqlashda nazorat top shirig'iga o'tkaziladi.

**4. Diagnostik tahlil.** Bilim, ko'nikma va malakadagi kamchiliklarni aniqlash, ularni to'ldirish va navbatdagi o'zlashtirish bosqichiga ko'tarilish maqsadida tashhislashtirish amalga oshiriladi. Diagnostika quyidagi maqsadlarni amalga oshiradi:

- o'quvchilar o'zlashtirish darajasini tashhislashtirish;
- bo'limlardagi yetishmovchiliklarning oldini olish;
- aniqlangan yetishmovchiliklarini to'ldirish maqsadida maxsus topshiriqlar ishlab chiqish;
- yakuniy diagnostik tahlil qilish.

Diagnostika ta'lim texnologiyasining navbatdagi bosqichi bo'lib, uning asosiy elementlaridan hisoblanadi. O'zlashtirishdagi kamchiliklar sababini aniqlash, har bir o'quvchining bilim darajasini aniqlash, rejaning borishida tuzatishlar kiritish yo'li bilan ta'lim jarayonining kafolatlanganligi ta'minlanadi. Diagnostik tahlil nazorat turlaridan test so'rovida amalga oshiriladi. Test so'rovi natijalarini diagnostik tahlil qilish ikki muhim vazifani hal qiladi:

1. Qaysi o'quvchi qaysa o'quv birliklarida qiynaladi;
2. O'qituvchi qaysi bilimlarini kuchaytirish lozimligini aniqlaydi.

**5. Tuzatish kiritish.** Bo'lim, bobning o'zlashtirish darajasining diagnostik tahlili natijasida 50%dan kam ko'rsatkich olinsa, o'qituvchi ta'lim jarayonining borishiga tuzatish kiritishi lozim. Tuzatish kiritishda quyidagilar bajariladi:

- O'quvchilar o'zlashtirishi qiyin bo'lgan mavzularni aniqlash(diagnostik tahlil asosida);
- qayta o'rganishi lozim bo'lgan mavzularni yangicha o'rgatish uslublarini ishlab chiqishi;
- Дарс режасида тузатиш киритиш вақтларини белгилаш.

**6. Qayta to'ldirish(nuqsonlarni tugatish).** Qayta tuzatish kiritishdan maqsad olingan bilimlardagi kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat. Kamchiliklarni tuzatish to'ldirish asosida amalga oshiriladi. Qayta to'ldirish asosan amaliyot mashg'ulotlarida bajariladi. Shu maqsadda o'qituvchi o'quvchilar o'zlashtirish darajasidagi «to'ldirishni» amalga oshirmog'i lozim. Bunda o'qituvchi tanlayotgan o'quv vazifasining darajasini o'quvchilarda mavjud bo'lgan real bilimlarga moslashtirishi zarur.

**7. Kutilishi lozim bo'lgan(kafolatlangan) natijani olish.** Bu element yangi pedagogik texnologiyaning markaziy g'oyasi hisoblanadi. Yangi pedagogik texnologiya ta'lim jarayoni natijasida kafolatli bo'lishini talab qilish bilan birga, jarayonning borishini ko'zda tutilgan maqsadda amalga oshirilishi va natijali bo'lishining maqsadli rejalashtirilishini o'qituvchi oldiga maqsad qilib qo'yadi. Jarayon borishi davomida shu jarayon tahlil qilinib boriladi, tuzatishlar kiritiladi, qayta to'ldirishlar amalga oshiriladi va oldindan kutilish rejalashtirilgan natija olinishiga erishiladi.

Ta'lim sohalari bir-biri bilan shu darajada uzviy bog'liqlik, bir sohadagi yangiliklar, istalgan boshqa sohada yangiliklarni vujudga keltiradi. Shuning uchun ta'limning ayrim komponentlarida yangiliklarning joriy etilishi, qo'llangan yangiliklarning umumiy samaradorligini aniqlashni talab etadi.

Ta'lim jarayoni yangiliklarini tasniflashda innovatsiya inson faoliyatining muhim ko'rinishlaridan biri ekanligini hisobga olish lozim. Bu faoliyat jiddiy chegaralar va bo'linishlardan holi. Yangilikka ta'lim jarayonining hamma tushunchalari va aspektlarini kiritish va ularni bir tushunchaga mujassamlashtirish qiyin. Yangilik ta'lim mazmunini tashkil qilish jarayonida uning metodologiya va texnologiyasigasiga ta'sir qiladi. Lekin shunday bo'lsada ta'lim jarayonida qo'llaniladigan yangilikni tasniflash zarur.

Bizning fikrimizcha birinchi asosiy mezon bu yangilikning qanday muhitda joriy qilishga bog'liq. Ikkinchi mezon yangilikni qo'llashning yo'llari, uchinchi yangilik joriy qilish tadbirlarining kengligi va chuqurligi, to'rtinchi mezon – yangilikning vujudga kelishiga sabab bo'lgan asos.

Ta'limning qaysi sohasiga yangiliklarning kiritilishi va qo'llanilishiga qarab, birinchi mezonga quyidagi yangiliklarni kiritish mumkin: 1) ta'lim mazmunida, 2) texnologiyasida, 3) tashkil qilishda, 4) boshqarish tizimida.

Yangiliklarni joriy qilishning yo'llaridan qat'iy nazar ularni quyidagilarga ajratish mumkin:

- a) tizimli, rejali, oldindan o'ylangan;

b)kutilmagan, o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan, to‘satdan paydo bo‘lgan. Yangiliklarni joriy qilish tadbirlarining kengligi va chuqurligidan qat’iy nazar ularning quyidagi turlarini sanab o‘tish mumkin:

- a) ommaviy, katta, global, tizimli, keskin, asosli, muhim, jiddiy, chuqur va boshqalar;
- b) qisman, kichik, mayda.

Yangilikning paydo bo‘lish xususiyatiga qarab ularni quyidagicha birlashtirish mumkin: a) tashqi va b) ichki.

Yuqorida ko‘rsatilgan xususiyatlar ta’lim oluvchi manfaatdorligining yuksak darajasini belgilaydi, natijada ta’lim jarayonining samaradorligi ortadi.

Faoliyatni innovatsiyalar asosida tashkil eta oladigan pedagogik kadrlar tayyorlash har doim pedagogika fanining diqqat markazida turgan muhim masalalardan bo‘lgan.

O‘zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko‘p asrlar davomida qo‘llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o‘ziga xos urf-odatlar va an‘analari, ta’lim-tarbiya haqidagi g‘oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o‘tmishda ko‘plab alloma-yu donishmandlar yetishib chiqishiga asos bo‘lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega.

Mutafakkirlar merosini o‘rganish natijasida insonning shakllanishida ilmning ahamiyati katta ekanligining guvohi bo‘ldik. Ularda bilim shaxs taraqqiyotining asosiy manbai ekanligi asoslab berilgan. Shuning uchun ham ajdodlarimiz bilim o‘rgatuvchi ustozga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik faoliyatga bo‘lgan asosiy talablardan biri edi. Chunki ilm bor joyda rivojlanish, taraqqiyot bo‘ladi, yangiliklarni joriy etishga keng yo‘l ochiladi.

Sharq uyg‘onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy aqlli, dono va o‘tkir fikrlaydigan kishilar to‘g‘risida shunday deydi: «Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo‘r iste’molga ega; yomon ishlardan o‘zini chetda olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar»<sup>3</sup>. Uning fikricha, «Ta’lim so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o‘rganishdir, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo‘lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo‘lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig‘i bo‘ladilar»<sup>4</sup>.

Yusuf Xos Hojib bolaga bilim berib hunar o‘rgatishni ularning yoshligidan boshlash kerakligini ta’kidlaydi.<sup>5</sup>

<sup>3</sup> Forobiy. «Fozil odamlar shahri». – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi. 1993. 182-b

<sup>4</sup> Forobiy. «Fozil odamlar shahri». – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi. 1993. 182-b

<sup>5</sup> O‘rta Osiyo pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. – T.: 1996. 159-b.

Bolalarga kasb-hunar va tadbirkorlikni yoshligidan boshlab o'rgatish masalasi Kaykovusning "Qobusnoma" asarida ham ko'tarilgan. "Ey farzand, ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kimga naf' yetkurmas. Bilursanki, xori mug'ilonning (tikanli buta) tani bordur ammo soyasi yo'qdur. Hunarsiz kishi ham xori mug'ilon yanglig' na o'ziga va na o'zgaga foyda berur".<sup>6</sup>

O'zbek xalqining ulug' allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy asarlarida yosh avlodga bilim berishning turli yo'llari va vositalari haqida tushunchalar berib, ularni mustaqil fikrlaydigan, yangilik yarata oladigan qilib tarbiyalash xususida to'xtalib o'tgan. «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida Beruniy sxolastik metodlardan voz kechish, dars samaradorligini oshirish yo'llarini izlash, bolalarning xotirasini rivojlantirish, fikrlashga o'rgatishni ta'kidlab o'tgan. «Maqsad gapni cho'zish emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik, chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandan-fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmasdan boshqasi boshlanadi va u kishi har bir narsada o'ziga yarasha lazzat bor deyilganidek ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keltiradi».<sup>7</sup>

Buyuk sarkarda Amir Temur o'zining o'gitlarida har bir ishni boshlaganda butun diqqat, zehn va bor kuchni shu ishga qaratish lozimligini ta'kidlagan: «Azmu jazm bilan ish tutdim. Biron ishni qilishga qasd qilgan bo'lsam, butun zehnim, vujudim bilan bog'lanib, bitirmagunimcha undan qo'limni tortmadim».<sup>8</sup>

Amir Temur o'z davrida qo'l ostidagilarni tadbirkor, ishbilarmon, mamlakat obodonchiligi, el-yurt osoyishtaligi uchun hamfikir, hamsuhbat, yelkadosh bo'lishlarini talab qilgan.<sup>9</sup>

Ulug' mutafakkir va buyuk shoir Alisher Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida maktab o'qituvchilari mehnatiga baho beradi va uning mehnati ancha mashaqqat talab etishini tushuntiradi.<sup>10</sup>

Markaziy Osiyo allomalari merosida ilm va uni egallashtirishdagi mahorat masalalari keng miqyosda talqin etiladi. Bunda albatta ilm o'rgatuvchining muhim o'rni ta'kidlanadi.

Hozirgi davrda ham o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishda o'qituvchining o'rni beqiyos. O'qituvchining muntazam izlanishi, bilimni o'rgatishning yangi va samarali yo'llarini kashf etishi o'quvchilar bilimlarni yuqori darajada o'zlashtirishlari, muhim amaliy ko'nikma va malakalar egallashtirishining omili bo'la oladi.

O'qituvchi o'z faoliyatida yangiliklarni muntazam joriy qilishi lozim. Ta'lim jarayonida yangiliklarni joriy qilinishi quyidagi holatlarda yuqori samara beradi:

<sup>6</sup> Kaykovus. Qobusnoma. – T.: Istiqlol. 1994. 26- b

<sup>7</sup> Beruniy. Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: 1968. 106-107 b

<sup>8</sup> Amir Temur o'gitlari. – T.: Navro'z. 1997. 16- b.

<sup>9</sup> Amir Temur o'gitlari. – T.: Navro'z. 1997. 16, 39-40 b.

<sup>10</sup> Навоий. "Махбуб ул-қулуб" (Қалблар севағиси) – Т.: Фафур Фулом. 1983. 28-29 б.

1) *shaxsiy qiziqtiruvchi omillarga asoslangan bo'lganda.* O'quvchi o'quv jarayoni uchun mas'uliyatli bo'ladilar, chunki ular o'z ehtiyojlarini yaxshi biladilar.

2) *birinchi navbatdagi ehtiyojlarga javob berganda.* Ta'lim o'quvchining birinchi navbatdagi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'qishga intilish yuqori darajada bo'ladi.

3) o'quvchilarning jalb etilishini ta'minlanganda.

O'quv jarayonida sustkashlik bilan emas faol ishtirok etish.

4) *mustaqil fikrga asoslanganda.*

O'quv jarayoni mustaqil fikrga asoslanganda, u eng katta samara keltiradi; talabalar bir-birlaridan o'rganadilar.

5) *teskari aloqani ta'minlaganda.*

Samarali bilim berilishi uchun yo'naltiruvchi va qo'llab quvvatlovchi teskari aloqa mavjud bo'lishi talab etiladi.

7) *o'rganuvchilarga nisbatan hurmat namoyish etilganda.*

Murabbiy hamda o'quvchi o'rtasida o'zaro hurmat va ishonch mavjud bo'lishi o'quv jarayoniga yordam beradi.

8) *do'stona muhit yaratilganda.*

Do'stona kayfiyatda bo'lgan o'quvchi cho'chib o'tirgan, hayajonlanayotgan, badjahl talabaga nisbatan materialni ancha osonroq o'zlashtirib oladi.

9) *qulay vaziyat sodir bo'lganda.*

Demak, o'quvchida o'zlashtirishga nisbatan motiv hosil bo'lsa, o'quv materialini tez va oson o'zlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda interfaol usullar asosida erkin fikrlashni shakllantirishga innovatsion yondashish ko'p qirrali, murakkab masaladir. Ushbu masalani samarali hal qilish uchun maktabda darslarni tashkil etishga innovatsion yondashning pedagogik asoslarini yaratish lozim.

Maktab darslarini tashkil etishga innovatsion yondashishda pedagogik faoliyatning motivlarini har tomonlama rivojlantirish orqali pedagogik texnologiyaning mohiyatini tushunish, shunga doir bilim, ko'nikma va malakalarni chuqur egallash, innovatsion faoliyat asoslarini belgilab berish, o'qituvchilar innovatsion faoliyatining o'ziga xos qirralarini ochib berish kabi masalalar ko'rib chiqiladi.

## **1.2. O'quvchilarda interfaol usullar asosida erkin fikrlashni shakllantirishning joriy holati.**

Bitiruv malakaviy ishimizda ko'rsatib o'tilganidek, o'quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishda interfaol usullarning ahamiyati o'qituvchi mahoratini shakllantirish jarayonini tubdan o'zgartirish bilan chambarchas bog'liq. Bular pedagogik hodisalarni tushunish va unga

baho berish ko'nikmasi va shu sohadagi bilimlariga tayanib o'z-o'zini va o'zgalarni anglash, o'ziga tanqidiy baho bera olish, o'zaro aloqa vositalarini izlash, ya'ni innovatsiyani tushunish va ularni o'z faoliyatida joriy etishdan iboratdir.

Innovatsion faoliyatni tushunishning mohiyati shundan iboratki, u, birinchidan, ta'lim jarayonini oldindan loyihalash va so'ngra sinfda, o'quvchilar bilan birga loyihani qayta ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu masalani «didaktik vazifa», «ta'lim texnologiyasi» tushunchalarini qo'llash bilan hal etish mumkin.

Ikkinchidan, an'anaviy pedagogikada metodik ishlanmalar o'qituvchi dars o'tishi uchun tuzilsa, innovatsion faoliyatda – o'quvchini o'quv-biluv faoliyatining shakllari va mazmunini tasvirlaydigan ta'lim jarayoni loyihasini ishlab chiqishni taklif etadi.

Uchinchidan, innovatsion faoliyatning muhim belgisi – maqsad hosil qilish jarayonidir. An'anaviy pedagogikada «pedagogik maqsad» masalasiga nazariyotchilar ham, amaliyotchilar ham kam e'tibor berganlar, maqsad – metodik adabiyotlarda ham noaniq ifodalaniib, unga erishish darajasi ham subyektiv baholangan.

Innovatsion faoliyatda pedagogik maqsadni aniqlash asosiy muammo bo'lib, maqsadni diagnostik ifodalash, bilim o'zlashtirish sifatini obyektiv baholashni nazarda tutiladi.

Nihoyat to'rtinchidan, ta'lim jarayoni tuzilishi va mazmuni jihatidan yaxlitligi – innovatsiyalarni izlab topish, ishlab chiqish va amalga oshirishning muhim prinsipi hisoblanadi. Yaxlitlik prinsipi, shuningdek, ta'limning har bir turi bo'yicha bo'lajak pedagogik tizimning loyihasini ishlab chiqayotganda uning barcha elementlari (chorak, o'quv yili davomida ham, shuningdek, butun ta'lim davrida ham) o'zaro aloqadorlikda bo'lishiga erishish zarur.

Pedagogik tizimning bir elementi, masalan, maqsadi o'zgarsa, uning boshqa qismlari (mazmuni, shakli, jarayoni) ham o'zgaradi. Buning uchun ta'limda texnologiyalar yaratilishi lozim.

Ta'lim texnologiyasida ta'lim jarayoni o'zaro ta'sir etuvchi jarayon sifatida faoliyat yuritadi. Bu1 - rasmda ifodalangan.

## O'ZARO TA'SIR ETUVCHI JARAYON



Tushunib yetish uchun savollar

1. Qanday o'rinda (pozitsiyada), qanday olamda?


2. O'zaro ta'sir qanday vazifani bajaradi?

3. Nima maqsadda (nima uchun?) ta'sir ko'rsatiladi? (hosil qilaman? Foydalanamaan? Fikr yuritaman?)


4. O'zaro ta'sirning asosiy mezoni nima?

5. O'zaro ta'sir mexanizmi qanday?

Fikrlash uchun asos



## 6. O‘zaro ta‘sir natijasi?



Bu rasmdan ko‘rinib turibdiki, o‘zaro ta‘sir sodir bo‘lishi ham, sodir bo‘lmasligi ham mumkin ekan. O‘zaro ta‘sir sodir bo‘lishi uchun unga nisbatan javob qaytarilishi zarur. Qaytarilgan javob orqali ta‘sir etilayotgan shaxs o‘rnida o‘zini qo‘yib ko‘rish, uning faoliyati maqsadi, imkoniyati, metodlari, usuli, faoliyat natijasini oldindan aniqlay bilish va o‘z faoliyatini shularni hisobga olgan holda tashkil eta olish kerak. O‘qituvchi mahorati o‘quvchi qobiliyatini o‘stirish uchun qanday maqsad qo‘yilishini bilishi, ta‘limning tarkibiy qismlariga e‘tiborni qaratishi va ta‘lim sohasida qulay usul va metodlarni tanlashi, ta‘lim jarayonida motiv hosil qilishga e‘tibor qarata olishida namoyon bo‘ladi.

Innovatsion faoliyatni yaxshi o‘zlashtirilishi va amalga oshirilishi natijasida o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham o‘z ehtiyojlari asosida individual dasturlar tuzishni o‘rganish bilan birga ta‘lim mazmunining dolzarbligiga hamda pedagogik jarayonning natijaliligiga erishishlari mumkin.

Yaxshi, ilmiy asoslangan innovatsion faoliyat - bu pedagogik mahorat asosini tashkil etadi.

Biz o‘quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishda interfaol usullar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sabablarga asosiy e‘tiborni qaratdik. Ta‘kidlovchi kuzatish ishlari Qarshi shahridagi 23-maktab o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazildi. Kuzatishlarda 50 nafar o‘quvchi qatnashdi. Bunda ta‘kidlovchi kuzatishlar jarayonida anketa, kuzatish va pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Avvalambor, maktabdagi ta‘lim tizimi ta‘siri ostida pedagogik jarayonni bilish sabablarining rivojlanishini aniqlashga to‘g‘ri keldi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning bilimlar darajasi ancha past.

Maktabda o‘quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirish uchun qanday ish tutish kerak?

Qarshi shahridagi 8-maktab o‘quvchilaridan 50 nafari tasodifiy tanlab olindi. Har bir guruhdan 25 tadan o‘quvchilar tanlandi. Sinf ikki qismga bo‘lindi. Har bir o‘quvchi o‘zi haqida ma‘lumot beruvchi ko‘rsatkichlar bayon qilingan varaqa bilan ta‘minlandi. Ular vazifani bajarib bo‘lganlaridan so‘ng, ular o‘qiydigan sinfdagi qolgan o‘quvchilarga ham shunday varaqalar tarqatildi. Shunday qilib, sinovdan o‘quvchining o‘zi haqidagi tasavvurlari va sinfdoshlarining u haqdagi tasavvurlari haqida axborotga ega bo‘ldik.

Tekshirish ishlari sinovda qatnashayotgan 5, 6, 7 va 8 sinf o‘quvchilari o‘rtasida olib borildi.

Ko'rsatgichlar	O'quvchilar o'z-o'zini anglash ko'rsatkichi			
	5- sinf	6- sinf	7- sinf	8- sinf
foiz	6,9	6,8	6,5	5,0
foiz	9,1	8,9	8,2	6,0

Ushbu jadvalda ko'rsatilgan sonlar kamayib borishi bu o'z-o'zini anglash ko'rsatkichining o'sganligini bildiradi.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatdiki, o'z-o'zini anglash ko'rsatkichi maktabda dars jarayonida o'sgan. Biroq bu jarayon barqaror emas, balki o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega. Shubhasiz, bu natijaga amaliy faoliyat ehtiyojlari va pedagogik-psixologik hamda maxsus bilimlarni o'zlashtirish orqali erishilgan.

O'z-o'zi va o'zgalarni anglash jarayonining rivojlanishini ikki yo'nalishda ko'rib o'tdik.

Kuzatishlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, maktada o'quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirish uchun interfaol usullar muhim ahamiyatga ega.

### **I - bob yuzasidan xulosalar**

- ta'lim jarayonida o'quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishda interfaol usullar asosiy omillardan hisoblanadi.
- ta'lim-tarbiya sohasida interfaol metodlarni qo'llashda o'qituvchi quyidagilarga e'tibor qaratish kerak:
  - o'z ustida muntazam ishlash, faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlash va ularga barham berish yo'llarini ishlab chiqish;
  - ta'lim jarayonida o'quvchilarga erkin muhitni yaratish va o'zaro hamkorlikni vujudga keltirish;
  - o'quvchilarni rag'batlantirish va buni asoslash metodlarini qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish;
  - o'zining pedagogik va o'quvchilarning bilish faoliyatidagi kamchiliklarga barham berishning samarali usullarini egallagan bo'lishi lozim.

## **II BOB O‘QUVCHILARDA INTERFAOL USULLAR ASOSIDA ERKIN FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI VA UNING SAMARADORLIGI.**

### **2.1 O‘quvchilarda interfaol usullar asosida erkin fikrlashni shakllantirish interfaol omillari**

Hozirgi davrda ta‘lim sohasida eng muhim vazifalar eskirgan tamoyillar va bir qolipdagi o‘qitish metodlaridan voz kechib, zamon talablariga javob beradigan yangi yo‘nalishlarni izlashni taqozo etmoqda.

O‘qitishning eng samarali yo‘li - mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning haqiqatni bilishga, fikrlashga, erkin muloqotga, hamkorlikka intilishidir. Darslarda bu ruh bo‘lmasa, bunday mashg‘ulotlar jonsiz, zerikarli va samarasiz bo‘ladi.

Zamonaviy ta‘limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma‘lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta‘lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuvni talab etadi.

Ta‘lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchi shaxsiga mos metodlarni qo‘llay olmasa, o‘quvchi shaxsini o‘zgartirish uchun sharoit yaratilmasa, uning tarbiyasida chekinish yuz beradi

Ayni paytda o‘qituvchi oldida mas‘uliyatli va mashaqqatli vazifa – o‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatish hamda ijodiy fikrlashni shakllantirish turibdi.

Ta‘lim jarayonida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, ularga ta‘lim berish jarayonini sifat jihatidan takomillashtirishni talab qilmoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda mehnat bozorida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash uchun o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini o‘stirish muhim ahamiyatga ega va rivojlangan mamlakatlar tajribasida isbotlangan.

O‘zbekistonning to‘la mustaqil bo‘lishida fuqarolarning ruhiy va fikriy mustaqilligi muhim kasb etadi. Shuning uchun ham jamiyat a‘zolarini, ayniqsa yoshlarni mustaqil fikrlay olishga o‘rgatish bugungi kunda o‘ta dolzarb masala bo‘lib turibdi. Yoshlarni tashabbuskor kishilar sifatida tarbiyalash, ularni nostandart fikrlashga odatlantirishda ta‘lim tizimi alohida o‘rin tutadi.

Hozirgi paytda milliy pedagogikaning asosiy diqqati tarbiyalanuvchi shaxs ma‘naviyatini kamol toptirishga, uning o‘ziga xos tarzda fikrlaydigan, mustaqil xulosalarga kela oladigan, ijodkor, tashabbuskor, mas‘uliyatni zimmasiga olishdan cho‘chimaydigan faol inson qilib shakllantirishga qaratilgan.

Insonning tuyg‘ular olami, hissiyotlar dunyosi erkin bo‘lmas ekan, o‘qituvchi yoki o‘zga kishining tazyiqlaridan, zo‘ravonliklaridan hayiqib turar ekan, u hech qachon mustaqil fikr aytolmaydi.

Hissiyotlariga daxl qilinmagan odamdan erkin fikrlay oladi, o'z fikrini asoslay biladi, uni himoya qila oladi.

Erkin fikrlashga o'rgatish zarurati, qolaversa mustaqillikni mustahkamlash ehtiyojini ko'zlab, xalq ruhiga singib qolgan mute'lik, jur'atsizlik kabi illatlarni tugatish, shuningdek serandishalik, kattalarga ko'r-ko'rona itoat qilish, sabr-toqatlilik kabi fazilatlarni ongidan chiqarish lozim edi. Mustaqillik sharofati ila erkinlik, Vatan, millat, davlat oldida mas'ullik, ma'naviyatga intilish, shaxsiy fikrga ega bo'lish singari bobokalonlarimizdan o'tib kelayotgan fazilatlar qayta jumbushga kela boshladi.

Bu holatni ta'lim-tarbiyada bevosita aloqador muassasalar, shaxslar hisobga olib, tarbiyalanuvchiga bo'lgan munosabatni o'zgartira boshladilar va ta'lim jarayonining pirovard maqsadi – erkin fikrlash va ma'naviyat ekanini tushunib yetdilar. Eng muhimi, mustaqil fikrlaydigan o'quvchi shunday sifatga ega bo'lmagan sinfdoshidan farqli o'laroq barcha narsani bilishga qiziqdi, ta'lim jarayonidan zavqlandi.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchi erkin va mustaqil fikrlashning usul va yo'llarini egallaganda o'quv materialini tez idrok etadi, puxta o'zlashtiradi. Dars mashg'uloti bilan qanoatlanmay qoladi. Sinfdoshining fikrlashiga xalal beruvchi nojo'ya xatti-harakatlaridan ranjiydi.

Ayni paytda fikrlashga o'rganmagan o'quvchi fikrlaydigan sinfdoshi oldida ojizligidan iymanadi, iztirob chekadi, turli salohiyatdagi o'quvchilardan tashkil topgan guruhda ishlashdan esa o'qituvchi tez toliqadi.

Bunday holatlar esa sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi, qobiliyatiga qarab guruhlashga taqozo qiladi.

O'quvchilar ishining yuqori samaradorligini asosiy sharti, tashabbuskorlik va faolligini vujudga keltirish ular faoliyatlarini vujudga keltirish ular faoliyatlarini baholashdan iboratdir.

Boshqa tomondan, bilim darajasi, harakat qila bilishlik va o'quvchilar sifati baho bilan ifodalansa, pedagogik mehnat sifatini ifodalaydi, bu o'qituvchi faoliyati natijasi, uni vazifani qo'ya bilishligi, manba va metodlar xazinasini bilishi, o'quv jarayonini ongli tashkil eta bilishdir.

Hozirgi vaqtda bo'yicha ulgurmovchanlik uch mezon bilan aniqlanadi:

- o'zlashtirib olinganlik darajasi va amaliy bilimlarni amalga oshirish;
- programmada belgilangan mashqlarni texnik nuqtai nazaridan harakat faoliyatlarini bajarish sifati;
- maktab dasturida ko'zda tutilgan me'yorlar.

Jismoniy tarbiya bo'yicha ishlar jarayonida o'quvchilarga qo'yiladigan umumiy talablar chiroyli yozilib ko'zga ko'rinadigan joyga ilib qo'yilishi kerak. Bu talablar o'quvchilar tomonidan jismoniy tarbiya darsini birinchi soatidan boshlab o'zlashtirib borilmog'i zarur.

Jismoniy tarbiyadarslarida ham o'quvchilarni mustaqil hatti harakatga yo'naltirida erkin faoliyani amalga oshirishda interfaol usullardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ularning mohiyati quyidagilarga olib boradi:

- dastur materiallarni mustaxkam bilish va ularni mustaqil mashg'ulotlar jarayonida qo'llay bilish;
- darsda o'rganilayotgan jismoniy mashqlarni, texnik nuqtai nazaridan bajara bilish;
- o'zining yoshi uchun kuchni rivojlantirish, chidamlilik, bukuluvchanlik, yengillik, tezlikka erishish imkoniga intilish;
- maktab boshlang'ich xarbiy ta'lim dasturi saf mashqlarni ustavi asosida mashqlarni aniq va to'g'ri bajarish;
- o'qituvchi topshirig'ini bajarishda ijodkor va tashabbuskor bo'lishlik;
- o'qituvchi va jismoniy madaniyat faollari a'zolari komandasiga va farmoyishiga tez javob berish;
- o'z-o'zini o'stirish, kamolatga yetkazish maqsadida jismoniy mashqlarni mustaqil bajarish.

Ba'zida o'qituvchilar, o'quvchilar qobilyatini yaxshi bilaman deb o'ylaydilar va shuning uchun bir biriga baho qo'yishi mumkin, bu yerda shaxsiy bilim va mashqlarni bajara bilishliklarini tekshirmaydilar, ayniqsa, axborot va o'rganuvchi asosiy vazifa tomonlarini yoddan chiqaradilar. Bu vazifalar, aytilgan talablarni bajarish uchun darsda besh olti bolaga baho qo'yishni talab etadi. Bundan tashqari, har bir darsni leytmotivi: "sizlarga –barakalla! «Xammasi yaxshi bo'lyapti» Sizlar tezda o'rganib olasizlar! Yana biroz kuchaytirsalaring sizlar kuchli yengil, chiroyli bo'lasizlar degan so'zlarni ishlatish maqsadga muvofiqdir. Bunday so'zlarni har dam ishlatmasdan nigoh tashlash, imo ishora ko'rsatish, luqma tashlashorqali izxor qilish zarur.

Mashg'ulot jarayonida o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni shartli rivojda uch guruhga bo'lish mumkin: bir oz, muhim va qo'pol.

Biroz xatolar-harakat faoliyatlarini tuzilishini va oson ko'rsatkichlarini Amaliy pasaytirmaydigan to'g'ri bajarishdan biroz og'ishganlik tushiniladi.

Muhim hatolar-to'g'ri bajarishdan og'ishgan, harakat faoliyatlarini tuzilishini buzmaydigan, lekin oson ko'rsatkichini pasaytiradigan harakatlar kiradi.

Qo'pol hatolar- to'g'ri bajarishdan og'ishgan, harakat faoliyatlarini tuzilishini buzuvchi va natijani pasayib ketishiga sabab bo'luvchi xatolar kiradi.

Harakat faoliyatlarining texnikasini bajarilishini baholashda shug'ullanuvchilar xisobga olinmaydi, shuning uchun har bir sinf uchun dasturida belgilab qo'yilgan baho mexonini talabi so'zsiz bajarilishi kerak.

Baholar mezoni xar bir mashqni o'rganishdan oldin ishlab chiqilishi va o'quvchilarga yetkazilishi kerak. Taxminiy baholashda birinchi navbatda pedagog topshirig'ini bajargan o'quvchilar baholanisha zarur. Ishlab chiqilgan baholar mezoni asosida o'rganilayotgan harakat faoliyatlarini qanday o'zlashtirilib olinayotganligini o'quvchilar obyektiv baholaydilar hamda o'rtoqlar erishayotgan yutuqlarni ko'radilar. Bolalarni o'z o'zini va o'zaro baholashga o'rgatish ularni mustaqil mashg'ulotga tayyorlashning asosiy shartidir.

Yakuniy baho uch komponentni xisobga olgan xolda chikariladigan(son ko'rsatkichi bo'lmaganda), harakat texnikasi, ta'luqli bo'lgan nazariy materiallarni bilishi aniqlanadi (sof va raqs mashqlari,akrobatika, sport o'yinlarinitexnikasi va taktikasi).

Baholanishda obyektivlik prinsipiga qattiq rioya qilish talab etiladi, ya'ni bahoni materialni qanday o'zlashtirib olganligiga qarab umumiy talablar asosida qo'yish kerak. Qo'yiladigan baho butun sinf oldida e'lon qilinib,nima uchun shunday ball, nima uchun baho oshirilgan (pasaytirilgan) tushuntirib berilishi kerak.

Chorak davomida har bir o'quvchi 4-5 odil baho olsa maqsadga muvofiq bo'lib, chorak bahosi shular asosida chiqariladi.

Yillik baho choraklardagi olgan baholari asosida chiqariladi, agar o'quvchi bir xil bo'lim materialni bo'yicha oxirgi tibbiy tayyorlov guruxida kiritilgan o'quvchilarning ulguruvchanligi umumiy asosda aniqlanadi, biroq, ularni salomatligiga to'g'ri kelmaydigan mashqlar talab me'yorlariga kiritilmaydi. O'quvchiga bog'liq bo'lmagan son ko'rsatishlarini bajarilmasligi (jismoniy rivojlanishni noproporsionalligi uzoq muddat darsni qoldirishi)ijobiy taxminiy baholarda harakat texnikasi uchun va bilimlarni o'zlashtirib olishi, yakuniy bahoni pasaytirish uchun sabab bo'la olmaydi.

O'quvchilar jismoniy tarbiyasi bo'yicha amaliy ishlar shuni ko'rsatadiki, ya'ni ularga qo'yilgan talablarni hamma bir xilda bajaravermaydi.

To'liq o'rganuvchilikka erishishga intilib, o'qituvchi dastur talablarini muvaffaqiyatli xal etishishda nimalar xalaqit berayotganligi sababini aniqlash lozim. Ulardan ko'p uchraydigani quyidagilardan iborat;

1.O'quvchilar harakat tajribasini yetishmasligi. Ma'lumki har bir mashqqa o'rgatishning muvaffaqiyati harakat va harakat faoliyatining arsenaliga bogik.

2. Jismoniy rivojlanish darajasining pastligi. Har qanday harakatni o'rganish uchun kuch, bukuluvchanlik, tezlik va chidamlilik qo'rquvni yengib o'tishi zarur bo'ldi;

3. Aqliy rivojlanishda qoloqligi.

Maxsus ilmiy qidiruv natijalari shuni ko'rsatadiki, aqliy rivojlanishdagi qoloqlik, jismoniy mashqlarni o'zlashtirib olish jarayonini тормозлайди.

4. Iroda sifatlarini yetarli darajada rivojlanmaganligi. O'quv dasturini o'zlashtirib olishlik- bu jiddiy jismoniy va aqliy mehnat. U qat'iyatlilikni, talab etadi, noxushlik, ayyorlikni yengib o'tishni talab etadi. Jismoniy mashqlarni bajarish «o'lik nuqtani» yengishda, chidam talabi bilan bog'liq. Qator xollarda qo'rquvni yengib o'tish zarur bo'ladi.

5. shug'ullanuvchilarning faollik darajasini pastligi. Bu 13-14 yoshdagi bolalar va bo'sh o'zlashtiruvchilar uchun xarakteridir.

Bolalarni baholab borib, har bir o'qituvchi o'quvchilarni kelgusi o'sishi xaqida g'amxo'rlik qilishi kerak.

Umumta'lim hunar maktablarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarini kuchaytirish talab etiladi. Mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni o'z salomatliklari ustida g'amxo'rlik qilishga, ish qobiliyatlari darajasi yuqori ushlab turishga o'rgatmog'imiz zarur. O'quvchilarga shaxsiy va ijtimoiy gigiyena, mustaqil mashg'ulotlar qoidasi haqida bilimlar berilmog'i kerak.

Mamlakatni ilg'or maktablarining amaliyoti va ko'pgina ilmiy-qidiruv ishlarning taxlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda o'z-o'zini jismoniy takomillashtirish talabini shakllantirish jarayoni qator o'zaro bog'langan yo'nalishlardan iborat:

- bolalarda jismoniy mashqlar mashg'ulotlariga qiziqish va ijobiy muomalada bo'lishni tarbiyalash;

- o'quvchilarni maxsus bilimlar bilan qurollantirish, ular asosida muntazam mashg'ulotlarni zarurligiga ishonch xosil kilishni shakllantirish;

- mustaqil mashg'ulotlarni tashkil qila bilish va malakani shakllantirish;

- o'quvchilarni har kunlik jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga amaliy o'rgatish.

Shunday davrlar bo'ldiki, u vaqtda o'quvchilarni o'qitishida asosiy e'tibor ularda "bilimlar"ni shakllantirishga qaratildi. O'sha vaqtlarda "asosiysi o'quvchilarda chuqur va puxta bilimlarni hosil qilish" degan ibora tez-tez eslatib turildi. Ta'limda bilimlarni tarkib toptirishga ortiqcha baho berishning salbiy oqibatlarini tez orada o'z ta'sirini ko'rsatdi.

O'quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda ularda erkin fikrlashni tarbiyalash zarurligi mutlaqo ravshan bo'lib qoldi. Fikrlashni tarbiyalash muayyan moddiy, pedagogik sharoitlarni talab qiladi. Mustaqil fikrlovchi birinchidan, borlikni kuzatish, his qilish, idrok etish imkoniyatiga ega bo'lmog'i zarur, ya'ni jismoniy ruhiy sog'lom bo'lmog'i kerak.

Ikkinchidan, voqea-hodisalar mohiyati, mazmunini tushunish salohiyatiga, tarixiy, geografik, fikriy va hokazo ma'lumotlarga ega bo'lmoq, bunday ma'lumotlar nafaqat makonda, balkim bir zumlik zamonda ham cheksiz ekanidan, ulardan eng zarurlarigina ajratib olib (o'qituvchi va darslik vositasida) o'quvchini fikrlatmoq lozim.

Uchinchidan, borlikni yaxlit holda, unga aloqador shart-sharoitlardan ajratmay umumlashtirish, ya'ni tarkib topgan muayyan uyg'unlik doirasida mushohada qilish kerak.

Fikrlashni konkret obyektlarni idrok qilishdan boshlanishi lozim. Masalan, bolani avval tabiat bilan, ya'ni o'simlik va hayvonot olami, chaqmoq, momoqaldiroq, yomg'irlar, qorong'ulik, yorug'lik, zilzila va boshqalar bilan tanishtirish, ularning sir-asrorlaridan voqif etish zarur.

To'rtinchidan, fikrlashga chorlovchi topshiriq yoki ma'lumot mustaqil fikrlovchining salohiyatiga mutanosib bo'lishi kerak.

Shularni nazarda tutib, mustaqil, erkin fikrlashni shartli ravishda 3 daraja – oddiy, o'rta va murakkabga ajratish mumkin. Darslardagi mustaqil fikrlashga chorlovchi topshiriqlarning aksariyati o'rta yechimni ko'zlaydi. Shuni hisobga olib umumta'lim maktablarda o'qituvchilar interfaol usullarni qo'llab kelib, yaxshi natijalarga erishib kelmoqdalar. Interfaol usullari ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro faollikka asoslangan va ta'lim tizimidagi o'zaro faol usullar (metod)dan tarkib topadi.

## **2.2. Innovatsion yondashuv asosida hamkorlikda o'qitish texnologiyalari sohasida olib borilgan ishlar tahlili.**

Innovatsiya biror yangi narsani, yangi tartib qoidani kiritishni anglatadi. Yangilik ko'pincha yangi metodlar, vositalar, yangi konsepsiyalar, yangi o'quv dasturlari kiritishni hamda qo'llanishga xosdir.

Innovatsiyaning turli ta'riflari mavjud: innovatsiya (lotincha inovatis)-bu yangilik, yangi tartib qoida, o'zgarish degan ma'noni anglatadi.

Yangilik va o'zgarish?

Yunesko hujjatlaridan birida «... Yangilik albatta yangi bo'lishi shart emas, biroq u albatta nimasi bilandir yaxshiroq va o'z-o'zidan namoyon etilishi mumkin bo'ladi»-deb ko'rsatilgan.

Innovatsion muammolari bilan bog'liq bir qator tadqiqotlarda o'zgarishlar yangilik bo'lishi, biroq har doim butunlay yangi g'oyalar yoki shakllar bo'lmaslik mumkinligi faraz qilinadi.

Shunday qilib, innovatsiya tushunchasi orqali o'quv - tarbiya jarayonini yaxshilash va takomillashtirishga yo'naltirilgan didaktik, metodik, tashkiliy-texnik o'zgarishlarni tushunamiz.

Pedagogikada innovatsion muammolarni hal etishda o'qituvchining ijodiy faoliyati eng dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. (eng zarur pedagogik texnikani egallash, tarkibiy qismlari).

Shu boisdan o'qituvchi mahoratiga ko'p narsa bog'liqligi uning pedagogik tizimda tutgan o'rni haqida batafsil to'xtalamiz.

1. O'qituvchi davlat buyurtmasiga mos keladigan ta'lim-tarbiya maqsadini aniq va ravshan belgilashi kerakki, natijada ma'lum vaqt ichida unga erishish uchun ta'minlaydigan didaktik jarayonni tuzish va joriy etish to'g'risida xulosa qilish mumkin bo'lsin.

2. O'qituvchi pedagogik tizimida belgilangan maqsadga to'g'ri keladigan o'quv-tarbiyaviy jarayon mazmunini o'quv dasturi bo'yicha chuqur egallashi, muntazam ravishda o'z pedagogik mahoratini ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talablariga mos xolda mustaqil ravishda kengaytirib borishi zarur.

3. O'qituvchi pedagogik tizimning tarkibiy elementi sifatida didaktik jarayonni amalga oshirish bilan tanish bo'lishi kerak: bu-jadallashtirish va tabiatan monandlik talabidir. Jadallashtirish didaktik masalalarni ma'lum vaqt doirasida birmuncha tez va yuqori saviyada hal eta oladigan didaktik jarayonni qo'llashni talab etadi. Ta'lim va tarbiyaga bu talabni aniqlab beruvchi omil - talablarning ma'lum faoliyatini o'zlashtirish tezligi hisoblanadi. Ikkinchisi o'quv-tarbiyaviy jarayonni shunday tashkil etishga asoslanganki, bunda mumkin qadar talabalarning keng doirada tajriba egallashiga imkon tug'diradigan va ularning aqliy malakasini rivojlantira oladigan mexanizmi vujudga kelsin! Bu talabni aniqlab beruvchi omillar: talabalarning o'qishga bo'lgan xoxishi, o'quv mehnatiga munosabati.

4. O'qituvchi didaktik jarayonni amalga oshirishga o'qitishning samarali shakllaridan foydalana olishi kerak. O'qitishning tashkiliy shakllari to'g'ri tanlanishi pedagogik tizim elementlarining ma'lum qonuniyat asosida bir-birlari bilan bog'liq ekanligini bildiradi. Bu bog'lanishlardan foydalanish va eng maqbul bo'lgan tashkiliy shakllar topish ta'limda rasmiyatchilikni yo'qotishga yo'l ochadi.

5. O'qituvchi pedagogik tizimning ishtirokchisi bo'lgan talabaning ta'lim mazmuni va tarbiya ta'sirini qay darajada egallayotganligini eng maqbul usullar yordamida doimo nazorat qilib borishi lozim. Bu to'g'rida olingan axborotlar esa pedagogik tizimni maqsadga muvofiq tarzda boshqalar imkoniyatini beradi yoki tizimdagi qaysi elementning mazmuniga tuzatish kiritish kerak ekanligini aniqlaydi.

Shunday qilib, pedagogikaga xos bo'lgan texnologik jarayonni amaliyotga tadbiiq qilishdan pedagog mahoratining ta'zi qirralari to'g'risida to'xtaldik. Ptning ilmiy xarakterga ega ekanligiga e'tiboran qaratgan holda, uning amaliy yo'nalishga xosligini, uni aniq masalalarni hal qilishda qo'llash mumkinligini e'tirof etish kerak.

Pedagogikaning ijodiy salohiyati uning ijodkor shaxsni shakllantirishga intilmoqda, pedagogik odobning namoyon bo'lishi, empatiya, qobiliyat, tasavvurni rag'batlantirish, qiziqarli, muammoli savollarni berish va hokazo orqali amalga oshirilishi mumkin. Pedagogik ijodiyotda yangilik tushunchasiga, muhim o'rin ajratilib, uning vaqt va faoliyat tushunchalari bilan o'zviy bog'liqligi quyidagi ikki vaqtlarida namoyon bo'ladi: 1) o'tmish bilan bog'lanmaganligi va hozirgi vaqtda mavjudligi; 2) yangilikning ijtimoiy muhimligi sifatida amaliy ishlashi, lekin hali haqiqatni standartlashtirish bosqichiga o'tmaganligi.

Avvalo nega bugunga kelib pedagogik texnologiyaga qiziqish shunchalik kuchaydi, degan savol tug'iladi. Aytish mumkinki, rivojlanayotgan davlatlarda odatda birinchi navbatda pedagogik texnologiyaga ta'lim sohasidagi siyosatning bosh vazifasi sifatida qarab kelingan. Bunday yondashish YUNESKO tomonidan ham ma'qullandi va 1972 yilda «Ta'limni rivojlantirish masalalari» bo'yicha Xalqaro Komissiya tashkil topdi: Bu komissiya zamonaviy texnologiya ta'limni modernizatsiyalashda harakatlantiruvchi kuchdir deb baholadi.

Muhimi shundaki, Prezidentimiz I. Karimov tomonidan milliy Dasturini ro'yobga chiqarish bosqichlari har jihatdan ilmiy asoslab berildi va uning ikkinchi bosqichida «o'quv-tarbiyaviy jarayoni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash» muhim vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Shunday qilib PTda didaktik masalalarning o'z yechimlarini topishi milliy dasturni ruyobga chiqarishning muhim bosqichidir. Agar pedagog qo'lida bilimga chanqoq talabalar, fan maqsadiga mos mazmun-dastur, qo'llanma, darsliklar mavjud bo'lsin u didaktik jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bilish faoliyatini tashkiliy shakllaridan samarali foydalanib yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga izchil va ketma ket joriy etish mumkin.

Hamkorlikka asoslangan o'quvchilarning faolligini oshirishga mo'ljallangan, o'quvchilarni boshqalarning fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o'zgarlar manfaatlari bilan hisoblashish, ulardan o'rganish, ularga o'rgatish, ta'sir qila olish, o'zining va boshqalarning "men"ligini sezish, his qilish, o'zini boshqarish, fikrini lo'nda, puxta va aniq bayon qila olishga o'rgatishga qaratilgan interfaol o'qitish usullari tez rivojlanib, ijobiy samara bermoqda.

Bunday interfaol usullardan biri "bahs-munozara" usuli hisoblanadi. Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagicha fikr yuritgan: "Faqat bahs, munozara, tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkin"<sup>11</sup> Interfaol usullar sinfda guruhlar o'rtasida raqobat muhitini vujudga keltirib, o'quvchilarni harakatchanlikka boshlab, ruhlantiradi, natijada o'quvchilar hamkorlikka o'rgata boshlaydilar.

Bahsli, muammoli vaziyat – insonning faoliyati davridagi fikrlash natijasiga bog'liq bo'lib, qoladigan murakkab holatga yoki sharoitga tushib qolishidir. Bunday holatda u hodisa yoki jarayonni qanday izohlashni bilmaydi. Bahsli, muammoli vaziyatlar o'quvchilarning aqliy kuchini zo'riqtiradi, u vaziyatni oydinlashtirish uchun yo'llar qidira boshlaydi, qiyinchiliklar bilan to'qnashadi.

Odam muammo bilan yuzma-yuz (to'qnash) kelgandagina fikrlay boshlaydi. O'zida mavjud bilimlar bilan fikrlab amallar bajara boshlab, saviyaga mos darajadagi xulosalarga kela boshlaydi.

<sup>11</sup> I.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" Toshkent "Sharq" nashriyoti. 1998 yil, 6-bet).

O‘quvchilar o‘zlari bajargan topshiriqlarni qanday qilib bajarganliklarini aytib, tushuntirib bera olishlari lozim.

Muammo hal qilish jarayonidagi tushunmay qolgan o‘rinlarini o‘z so‘zlari bilan ifodalab bera olishi o‘qituvchi uchun muhimdir. Nemis pedagogi Disterveg bekorga “Noqobil o‘qituvchi haqiqatni aytadi qo‘yadi, yaxshi o‘qituvchi esa uni topishini o‘rgatadi” deb aytmagan. Bu o‘rinda o‘qituvchining vazifasi faqat mavzuni tushuntirib berish emas, masalani to‘g‘ri qo‘ya bilishi, o‘quvchilarni o‘z faniga qiziqitira olishi, uning tuyg‘ularini bezovta qila bilishi va muammoni hal etishda hamkor sifatida qatnashishdan iborat.

Bola faoliyati erkin bo‘lsa, hurligiga dahl qilinmasa, unda shaxsga hurmat tuyg‘usi paydo bo‘ladi.

Bahs jarayonida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan hamkorligi bolani mutelikdan, ko‘r-ko‘rona itoatdan qutqaradi. Dars bir maqsad sari intilayotgan hamkorlikning yagona faoliyatiga aylanadi.

Pedagogik texnologiya doirasida yangi o‘quv materialini o‘zlashtirish quyidagi darajalardan iborat:

I. Boshlang‘ich daraja – o‘quvchining eshitganlari ularga berilgan namunalar, ko‘rsatmalar algoritm asosida topshiriqlarni bajarish ko‘nikmasini ifodalaydi.

II. Algoritmik daraja – bilim va ko‘nikmalar mazmunini tatbiq qila olish mahorati, berilgan algoritm bo‘yicha topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarish ko‘nikmasini ifodalaydi.

III. Evristik daraja – berilgan o‘quv vazifalarini yechish uchun o‘zgarishlar kiritish asosida yangi algoritmlar tuzish, o‘quv muammosini hal etish uchun yangi axborotlarni mustaqil tarzda izlab topish malakasini aniqlaydi.

IV. Ijodiy daraja – avval o‘rganilgan algoritmlardan butunlay farq qiluvchi, sifat jihatidan yangi algoritmlar tuza olish malakasi bilan ifodalanadi.

Pedagogik texnologiyalar sohasidagi yangi izlanishlar bilan tanishish, o‘qitishning faol usullarini bilish va qo‘llay olish har bir pedagog va muhandis-pedagogning oldiga qo‘yayotgan zamon talablarining asosiylaridandir. Keyingi davrda matbuotda e‘lon qilingan axborotlarni tahlil etgan holda quyidagi ta‘lim jarayonida qo‘llanilayotgan interfaol usullar haqida tushunchalar beriladi.

### **Fikrlar hujumi texnologiyasi**

Fikrlar hujumining maqsadi mumkin qadar katta miqdordagi g‘oyalarni yig‘ish, o‘quvchilarni ayni bir xil fikrlash inersiyasidan xoli etish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo‘lgan fikrlarni yengishdir. Ushbu usul biror muammoni yechishda guruh ishtirokchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma‘lum bir yechimga kelinadi hamda eng samarali hisoblanadi. Bu uslub orqali shaxsni texnik rivojlantirish

mumkin, u to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi. Fikrlar hujumini tashkil etishda bir guruh o'quvchilar to'planadi va ular oldiga biror muammoli vaziyatni yechish bo'yicha o'z yechimlarini(fikr,mulohaza) bildirishlari so'raladi.

Mazkur bosqichda ishtirokchilardan hech biri boshqa qatnashuvchilarni g'oyasi, fikrini muhokama qilishi yoki baholashi mumkin emas. Dars jarayonida qo'llanilgan fikrlar hujumida bildirilgan g'oya va fikrlar muhokama etilmaydi va baholanmaydi. Bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar, ular hatto bo'lmag'ur bo'lsa ham hisobga olinadi. qancha ko'p g'oya va fikrlar bildirilsa shuncha yaxshi. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin. G'oya va fikrlarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi. Uslubning asosiy tamoyili va qoidasi bahs ishtirokchilari ishlab chiqqan g'oyalar tanqidini mutlaq taqiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibani rag'batlantirishdir.

Muammo

Ishtirokchilar

Fikr va g'oyalarni to'plash

Fikr va g'oyalarni bildirish

Fikr va g'oyalarni guruhlash

Muhokama

To'g'ri va samarali yechimga kelish

### **Aqliy hujum texnologiyasi**

Aqliy hujum texnologiyasi biror muammoni yechishda guruh qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga keladigan samarali usullardan biridir. U to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi. Aqliy hujum uslubini qo'llashda o'qituvchi guruh ishtirokchilarini to'playdi, ular oldiga biror muammoli vaziyatni yechish bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini bildirishlarini so'raydi.

Mazkur bosqichda ishtirokchilardan hech biri boshqa qatnashuvchilarning g'oyasi, fikrini muhokama qilish yoki baholashi mumkin emas. Bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar hisobga olinadi, qancha ko'p fikr va g'oyalar bildirilsa shuncha yaxshi. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish, kengaytirish, qayta o'zgartirish mumkin.

G'oyalar yozilgan varaqlar devorga osib qo'yiladi. Berilgan g'oyalar asosida muammoni hal etishga yordam beradigan yechimni tiklash uchun muhokama o'tkaziladi. Bu haqiqatan ham o'quvchilarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g'oyalarni bayon etish chog'ida boshqalarni ham qizg'in ishga yo'llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag'batlantiruvchi samarali metoddur. Aqliy hujum shuning uchun ham faollashtirishning muhim

usuliki, unda tanho ishlash mumkin emas, birgina g'oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o'ziga tortib oladi.

O'qituvchi mavzu yoki savolni ajratib olishi zarur, keyin esa o'quv faolligi 5-10 daqiqa oraliqidagi vaqt chegarasida yengillashtiriladi. Aqliy hujum turli tarzda qo'llanilishi mumkin: masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish uchun yangi savol qo'yish yoki istalgan qandaydir muammoni hal etish va hokazo.

Muammo

Ishtirokchilar

Fikr va g'oyalarni bildirish

Fikr va g'oyalarni guruhlash

Muhokama

To'g'ri va samarali yechimga kelish

### **Tarmoqlar(Klaster) texnologiyasi**

Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taaluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi. Bu uslub biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

### **Bumerang texnologiyasi**

Bumerang uslubi bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmunga(muammoli, munozarali va hokazo) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi rolida chiqishi mumkin.

Bumerang texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi: xotirani, g'oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

### **Skarabey texnologiyasi**

Skarabey uslubi interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Ushbu texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqida tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi.

Skarabey texnologiyasi o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega.

### **Tarozi texnologiyasi**

Tarozi texnologiyasi munozarali, murakkab mazmunli mavzularni o'rganishda qo'llash mumkin. U tanqidiy tafakkur, mantiq, ijodiy improvizatsiya, fikran tajribalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu texnologiya dalillash qobiliyatini rivojlantirish, o'z dalillarini yozma va og'zaki shaklda ishonchli va lo'nda ifodalashni shakllantiradi, o'z nuqtai nazarini himoya qiladi, muxoliflarni ishontiradi, munozara madaniyatiga o'rgatadi.

### **Yelpig'ich texnologiyasi**

Yelpig'ich texnologiyasi murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar muammoli turidagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha biryo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. Yelpig'ich texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarining, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

### **Kichik guruhlarda ishlash texnologiyasi**

O'qituvchi o'quvchilar bilan kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish uchun faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Muammodan bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi. Mavzuning kerakli asosi yaratiladi. Mavzuni o'rganishdan oldin o'quvchilar mazkur muammo haqida tushunchaga ega bo'lishlari lozim. Keyin guruh o'quvchilari kichik guruhlariga, ya'ni 3-5 kishidan bo'linishlari kerak. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga aniq ko'rsatmalar beriladi. Berilgan muammoni yechishda o'qituvchi o'quvchilarni qo'llab-quvvatlab va yo'naltirib turadi. Mavzu so'ngida muhokama qilinadi.

O'quvchi kichik guruhlarda ishlaganida, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

### **Munozara texnologiyasi**

Munozara uslubida o'qituvchi o'quvchilar orasidan yetakchi o'quvchini tanlaydi. Yetakchi esa munozara mavzusini tanlaydi va qatnashuvchilarni taklif etadi. Yetakchi o'quvchi munozara ishtirokchilariga muammo bo'yicha «Aqliy hujum» masalasini beradi va uni o'tkazish tartibini belgilaydi.

Yetakchi «Aqliy hujum» vaqtida bildirilgan g'oya va fikrlarni yozib borish uchun kotib tayinlaydi. Bu bosqichda yetakchi guruh qatnashchilarini har bir a'zosi o'z fikrini bildirishi uchun sharoit yaratib beradi.

Yetakchi ikkinchi bosqichga o'tishdan oldin qisqa tanaffus e'lon qiladi. Ikkinchi bosqichda «Aqliy hujum» ishtirokchilari bildirgan fikr va g'oyalarni guruhlashtirib, ularni tahlil qilishga o'tiladi. Tahlil orqali qo'yilgan vazifani eng maqbul yechimini topishga harakat qilinadi.

Faoliyat yo'nalishi

Kerakli asos yaratish

Guruh

Aniq ko'rsatma berish va yo'naltirish

Muhokama etish

Munozarani o'tkazish bo'yicha tashkiliy tadbirlar

Aqliy hujum usuli

Fikr va g'oyalarni to'plash

Fikr va g'oyalarni guruhlash

Tahlil etish

Aniq va maqbul yechimni topish

Guruh

### **Nafis arra texnologiyasi**

Ushbu uslubda darsda o'rganiladigan mavzu nomi yozuv taxtasiga yoziladi va qanday savollarga javob topilishi lozim ekanligi tushuntiriladi. Guruh o'quvchilari 5-6 kichik guruhlariga (boshlag'ich guruh) bo'linadi va har bir guruh o'rganiladigan material bo'yicha alohida ma'lum mavzularni oladi. Har bir guruh o'rganiladigan mavzu bo'yicha oldindan tayyorlangan kerakli materiallar papkasi bilan ta'minlanadi. Boshlang'ich guruhlar 10-12 daqiqa davomida taqdim qilingan materialni o'rganadi va muhokama qiladi.

Natijada o'qituvchi o'ziga berilgan mavzuni yaxshi biladigan 5-6 guruh ekspertlariga ega bo'ladi. Keyingi bosqichda har bir guruhdagi ishtirokchiga ma'lum tartib raqami beriladi va tartib raqamlari bir xil bo'lgan o'quvchilardan yangi (ekspertlar) guruhlar tuziladi. Mavzu muhokamasining 15-20 daqiqasi davomida yangi ekspertlar guruhini har bir a'zosi oldingi guruhga berilgan mavzu mazmunini tushuntirib beradi.

Natijada umumiy mavzuni yaxlitligi bo'yicha o'zlashtirish ta'minlanadi. Ekspertlar guruhining har bir a'zosi olingan axborotni ma'lum bir vaziyatda qo'llay olishini ta'minlash uchun mavzu bo'yicha biror muammoli vaziyat guruhlariga beriladi va har bir guruh ushbu muammoni to'g'ri yechimini topishi lozim.

Muammo har bir ekspert guruhida muhokamadan o'tkazilgach guruhlarining sardorlari muammo bilan guruhni tanishtiradi va uning yechimini ko'rsatib beradi. Mashg'ulot so'ngida o'quvchilar bilimini tekshirib ko'rish va baholash uchun o'rganilgan material bo'yicha ekspress test o'tkaziladi. Nafis arra usuli yordamida o'quvchilar o'rganiladigan material bo'yicha ma'lum

bilimga mustaqil ega bo'lishi, jamoa bilan ishlash malakasini olishi, axborot bilan almashish hamda jamoa bo'lib qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Materialga doir muammoli vaziyatni berish

Muammoli vaziyatni muhokama etish va to'g'ri yechimini topish

Ekspress test nazorati

O'rganiladigan material

O'quvchilar 5-6 guruhga bo'linadi

Boshlag'ich guruh:

Har bir guruhga o'rganiladigan material bo'yicha mavzu beriladi

Mavzuni o'rganish va muhokama qilish

Yangi ekspertlar guruhini tuzish

Berilgan mavzu mazmunini o'rganish

### **Blits - o'yin texnologiyasi**

Blits – o'yin texnologiyasi o'quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan fani asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o'quvchilar o'zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o'tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to'liq sharoit yaratib beradi. Blits-o'yin texnologiyasi o'quvchilarga tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so'ngra o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, o'zgalar bilan hamfikir bo'la olishga yordam beradi.

### **Amaliy o'yinlar texnologiyasi**

Amaliy yoki ishchan o'yinlar yangi mavzuni o'zlashtirish, takrorlash, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish vazifalarini bajarish imkonini beradi. O'quv jarayonida amaliy o'yinlarning turli shakllaridan foydalanish mumkin (taqlid qilish, rolli o'yinlar «teatr darslari va sahna ko'rinishlari va hokazolar).

Taqlid qilish o'yinlarida mashg'ulot jarayonida tashkilot, korxonada ishi taqlid etiladi (ish yig'ilishi, ish rejasining muhokamasi, muzokaralar, munozaralarni olib borish, sud, patent tashkiloti, ilmiy kengashlarda chiqishlar va hokazo).

Rolli o'yinlar darsida o'quvchi turli xil xarakterdagi inson obraziga qalban kirishib ketadi. O'yinda o'quvchilarga asosan tugallanmagan vaziyatlar aks etgan, muammoli sahna ko'rinishi rollari beriladi. O'quvchilar ushbu berilgan muammoli rollarni mustaqil ravishda oxiriga yetkazib o'ynashlari lozim.

Teatr dasturlarida rolli o'yinlarni boshqa insonlarni tushunishga o'rgatadi. Ushbu usul o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, hayotda har qanday sharoitda ham o'zini tuta bilishga, tarbiyalanganligiga hamda mustaqil hayot kechirishdagi o'zini qarashlarini asoslab bera oladigan inson sifatida shakllantiradi.

Ssenariy tayyorlash  
 O'yinga tayyorgarlik  
 Ekspert  
 lar tanlash  
 Moddiy ta'minot  
 Yo'l-yo'riq berish  
 Mashq qilish  
 Rollarni bilish  
 Muhokama etish  
 O'yinni o'tkazish

### **Hamkorlikda o'qish texnologiyasi**

Hamkorlikda o'qish texnologiyasi asosida mashg'ulot o'tkazish uchun guruh o'quvchilari 4-5 kishilik kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhda kuchli, o'rta va kuchsiz o'quvchi bo'lishiga e'tibor berish kerak. O'quv xonasida partalarning qo'yilishi kichik guruhlar ishlashiga yordam bersin. Guruh ishtirokchilari doira shaklida o'tirsin va bir-birini ko'rsin.

O'tkaziladigan mashg'ulotga tayyorgarlik davomida mavzuning qaysi qismini o'qituvchining o'zi tushuntirishi va o'quvchilar qaysi qismini bajarishi rejalashtiriladi. Bunda darsga qo'yiladigan maqsaddan kelib chiqqan holda, har bir o'quvchiga qo'yiladigan topshiriqlar aniq bo'lishi lozim.

Agar, topshiriq yangi mavzuga doir savollarga javoblardan iborat bo'lsa, unda kuchli o'quvchiga qiyin savollar beriladi. O'quvchi tomonidan berilgan javobni guruh ishtirokchilaridan biri javobning to'g'ri yoki noto'g'riligini darslikdan tekshirib aytadi. Keyingi o'quvchi esa agar javob to'g'ri bo'lsa uni daftarga yozadi. So'nggi o'quvchi javobni isbotlovchi dalillar va misollar keltirishi kerak. Keyinchalik o'quvchilar o'z rollarini almashtirishlari mumkin. Muhokama yakunida kichik guruhdagi o'quvchilar o'zlariga berilgan savollarning hammasiga javob berishlari va ularni butun guruh muhokamasiga chiqarishlari kerak.

### **Mojarro texnologiyasi**

Mojarro uslubi favqulotdagi vaziyatlarda qilinadigan hatti-harakatlarni o'quvchilarga o'rgatish maqsadida amaliyot mashg'ulotlarda qo'llaniladi. O'quvchiga muammo yuzasidan vaziyatga oid har qanday top shiriq ko'rinishidagi qisqacha axborot taqdim etiladi. Berilgan top shiriqni tahlil qilib chiqish va 1-1,5 daqiqa ichida tezgina qaror qabul qilish zarur.

Bu uslubda mashgʻulot oʻtkazish oʻquvchilarning fikr qilishini juda ham faollashtiradi va ularni favqulotdagi vaziyatlarda ishlashga oʻrgatadi. Bunda muhimi top shiriqni toʻla bajarish emas, balki tezlik bilan chaqqon bajarishdir. Oʻquvchi top shiriqning birinchi galda uddalash kerak boʻlgan qismini bajarishi mumkinki, bu ham uning oʻqishida ahamiyatga ega. Mazkur uslub mashgʻulotning turli bosqichlarida qoʻllanilishi bilan birga, yangi materialni ishlab chiqish va mustahkamlashga qaratilgan asosiy bosqichda hammadan koʻp foydalaniladi.

### **Dumaloq stol texnologiyasi**

Dumaloq stol uslubida oʻquvchilarga beriladigan topshiriq yozib qoʻyilgan qogʻoz varagʻi davra boʻylab oʻtkaziladi. Darsda ishtirok etuvchi har bir oʻquvchi oʻzining javob varagʻini yozib qoʻyadi va varaqni boshqa oʻquvchiga uzatadi. Mashgʻulot jarayonida hamma oʻquvchilar oʻz javoblarini yozib qoʻyishadi, keyin muhokama boʻladi: notoʻgʻri javoblar oʻchiriladi, toʻgʻri javoblarning soniga qarab oʻquvchining bilimlariga baho beriladi. Bu usulni faqat yozma shaklda emas, balki ogʻzaki shaklda ham qoʻllash mumkin.

### **Muammoni hal etish texnologiyasi**

Muammoni hal qilish uslubi yoki muammoga qaratilgan uslubi – muammoni aniqlash va uni hal qilishning eng maqbul yoʻllarini topishga oʻquvchining tayyorgarligini tekshirib koʻrish uchun qoʻllaniladi. Oʻquvchi bunda birinchi boʻlib muammona aniqlab oladi. Soʻngra muammoni yechish uchun axborotlarni izlaydi. Izlanish chogʻida oʻquvchi kerakli jurnallar, monografiyalar, darsliklar, qoʻllanmalardan va Internet tizimidan foydalanishi mumkin. Olingan axborotlarning ishonchligini baholash, uni mahalliy sharoitlarda tatbiq etsa boʻlishini idrok etishi lozim. Oʻquvchi olingan maʼlumotlardan xulosa chiqarishi va ularni amalda tatbiq etish koʻnikmalariga ega boʻladi.

### **Qor boʻron texnologiyasi**

Ushbu uslubda ikki guruh oʻquvchilari bir muammo yoki vaziyatni eng koʻp miqdorda toʻgʻri javoblar olish maqsadida birgalikda muhokama qilishadi. Masalan, oʻrganilayotgan mavzuga doir savol topshiriqlar beriladi.

Har bir toʻgʻri javob «yumaloqlangan qor» koʻrinishida oʻsha guruhga ball tariqasida yozib qoʻyiladi. Eng koʻp ball olgan guruhga aʼlo baholar qoʻyiladi.

### **Asalari galasi texnologiyasi**

Asalari galasi usulida berilgan muammoni yoʻ butun guruh yoki ikkita kichik guruh tomonidan muhokama qilib chiqishga moʻljallangan. Topshiriqlar har xil yoki butun guruhga bitta boʻlishi mumkin. Guruhlar muammoning yechimini 10-15 daqiqa davomida muhokama etib, hamkasblariga maʼlum qilishadi. Bunda eng yaxshi javob varianti tanlab olinadi.

### **Akvarium texnologiyasi**

Akvarium uslubida guruhdan ixtiyoriy ravishda uch o'quvchi tanlab olinadi. Bular o'quv xonasining o'rtasidan joy oladilar – go'yoki akvariumdagi baliqlardek, qolgan o'quvchilar esa, kuzatuvchi bo'lishadi. Shu kichik guruhga bir vaziyat taklif etiladi, ular buni 10-15 daqiqa davomida birgalikda muhokama qilishlari, kuzatuvchilar esa, davradagi guruhdoshlarining to'g'ri yoki noto'g'ri javoblarini yozib borishlari kerak.

Avval akvarium baliqlari fikri taklif etiladi, uni kuzatuvchilar muhokama qilishadi, keyin kuzatuvchilar o'z fikrlarini taklif etishadi, shu fikrlarning eng yaxshisining muallifi o'z fikrini taklif etmagan o'quvchi o'rniga kichik guruhga o'tadi.

Bu usul xuddi «Nima, qayerda va qachon?» degan o'yin singari o'tkazish mumkin, o'qituvchi oldindan tayyorlab qo'yilgan savollarni beradi, o'quvchilar berilgan savollarni bir daqiqa davomida muhokama qilib, javob berishadi. Javoblar qanoatlanarli bo'lmasa, stolga boshqa uch nafar o'quvchi borib o'tiradi.

### **Loyiha texnologiyasi**

Yakka tartibdagi ish

Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish

Taqdimotga tayyorlanish

Taqdim etish

Muammo

Guruhda muhokama qilish

Tadqiqot ishini tanlash

Guruh ishi

Loyiha uslubida - ta'lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda rejalashtirilgan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu uslubda ta'lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar.

Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiy bo'lishi mumkin, lekin har bir loyiha o'quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta'lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat.

Ta'lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo'lishi va u ta'lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo'llay olishni talab qiladigan topshiriq bo'lishi kerak. Loyiha o'rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishi, ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak.

## **II - bob yuzasidan xulosalar**

Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish, ishlab yaiqish va maliyotga joriy qilish jarayonid amalga oshiriladigan ishlar orasida interfaol metodlarni tashkil etish va amalga oshirish muhim bosqichlardan hisoblanadi.

Ta'lim jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil qilish quyidailarni o'z ichiga oladi:

1. Interfaol metodlarni amalga oshirish rejalarini tuzib chiqish.
2. Interfaol metodlarni o'tkazish uchun shart-sharoit yaratish.
3. Interfaol metodlarni amalga oshirish usun baza yaratish.
4. Interfaol metodlarni o'kazishda vazifalarni taqsimlash.
5. Interfaol metodlarni tashkil etishga maxsus tayyorgalik ko'rish.

## UMUMIY XULOSA

1. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davrida jamiyat hayotiga yangiliklarning kirib kelishi, inson mehnatining takomillashishi, qulaylikka ega bo'lishi, yangilanib borishiga bo'lgan ehtiyoj ta'lim sohasida ham bir qator o'zgarishlar bo'lishini taqozo etmoqda.

2. Hozirgi kunga kelib ta'lim sohasida shu davrgacha erishilgan yutuqlarni asrab-avaylagan holda ma'lum stereotiplardan voz kechish vaqti keldi.

3. O'quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishda ta'lim jarayonini yangi texnologiyalar asosida tashkil etishga e'tibor qaratish zarur. Bunda o'qituvchining innovatsion faoliyati orqali ta'lim jarayonini interfaol metodlar orqali tashkil etishi yaxshi samara beradi. Ayniqsa, o'quvchilarni maqsadni anglashga, shu maqsadni ta'lim jarayonida nechog'li amalga oshganini tahlil qilishga o'rgatish, talabalarni o'z-o'zini anglashga, o'zining faoliyati va o'z-galar faoliyatiga to'g'ri baho bera bilishga o'rgatishda muhim o'rin tutadi.

4. Bo'lajak mutaxassislarni kasbga tayyorlashda pedagogik motivlarning shakllanishiga e'tibor qaratib, pedagogik ta'limni zamonaviy tashkil etish, pedagogik amaliyot tarzida tashkil etilishi lozim. Faqat shundagina bo'lajak mutaxassisda kasb ko'nikma va malakasi hosil bo'ladi.

5. Uzluksiz ta'lim tizimining hozirgi darajasi o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatishda ta'lim jarayonini texnologik asosda tashkil etishga tayyorlashda yetarli imkoniyatlarga ega emas. Ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil etishga yetarli e'tibor qaratilmayotgani bu ishni tashkil etish jarayonini qiyinlashtiradi.

6. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda maktablar bilan mustahkam aloqalarni yo'lga qo'yish zarur.

7. O'quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishda avvalo ularning ma'lum o'qish motivlarini hisobga olgan holda, shu motivlarni rivojlantirishga qaratilsa yaxshi natija berishi mumkin. Faqat motivlarga insonni kasb sohasidagi mahoratini tahlil qilishga va o'zidagi kamchiliklarni bilish, o'z - o'zini anglashga yordam beradi.

8. O'qish motivlar o'qituvchilarni o'quvchilar bilan yaqindan til topa bilish yo'llarini izlashga, o'zining va o'z-galarning faoliyatiga xolis baho berishga o'rgatadi.

9. O'quvchilarni ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlash pedagogik ishlarning turli shakllarini muntazam va o'zaro bog'liq holda tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunday ishlarni tashkil etishning yanada samarali shakli yaxlit tizimlilik asosida amalga oshirilishidadir.

Bitiruv malakaviy ishimiz natijasida quyidagi tavsiyalarni bayon qilamiz:

1. Hozirda o'qituvchilarning yuqori kasbiy tayyorgarlikka, pedagogik maxoratga, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga, mafkura borasida chuqur bilimlarga ega bo'lishi, ta'lim-tarbiya

ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan samarali foydalanishga o'rgatish zarur.

2. Yosh avlodning xar tomonlama yetuk, bilimli, erkin fikrlovchi, yuksak ma'naviyatli, barkamol, vatanparvar shaxslar bulib yetishishini ta'minlash yulida amalga oshirilayotgan pedagog xodimlarning yuqori ilmiy, metodik bilimlarga hamda amaliy ishlash buiicha yuksak mahoratga ega bo'lishlarini ta'minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

3. Har bir o'qituvchi o'z fanini o'qitishning eng samarali zamonaviy pedagogik texnologiyalarini puxta bilishi va bu sohadagi yangiliklarni uzluksiz o'rganib borish orqali o'z kasbiy maxoratini muntazam oshirib borishi talab qilinadi.

4. O'quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirish jarayoni sifati va samaradorligini oshirishda texnologiyalarning asosiy mezonlarini belgilashda ma'lum ilmiy asosga, konsepsiyaga tayanish muhim.

5. O'quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirish jarayoni samaradorligi, ta'lim standartlariga erishishni kafolatlashi, sarflash talab qilinadigan vaqt, kuch va vositalarning me'yor darajasida ekanligi.

6. O'qituvchining o'quvchilar bilimlarni yuqori darajada o'zlashtirishlariga erishish uchun muntazam izlanishga, interfaol metodlarning yangi va samarali yo'llarini kashf etishi, o'quvchilar intellektual faolligini oshirishda ta'lim jarayoniga yangiliklarni muntazam qo'llashi lozim.


### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq. 1997.
2. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura (nutqlar, maqolalar, suhbatlar). –T.: O'zbekiston. 1993.
3. Karimov I.A. «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay» Toshkent, "O'zbekiston", 1995 y
4. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori kitobida. – T.: 1998.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. "Ma'naviyat". 2008 y
6. I. Karimov. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Toshkent, "O'zbekiston", 2010 y. 74-75 betlar.
7. I. Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent, "O'zbekiston", 2011.
8. O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim konsepsiyasi // Xalq ta'limi. 1992. №2. - B. 9-18.
9. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003. - 174 b.
10. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi mutaxassislari tayyorlash texnologiyasi. – T.: «Nizomiy TGPU». 2000. - 52 b.
11. Barkamol avlod orzusi. – T.: O'zbekiston. 2000. - 245 b.
12. Bepalko V.P. Slagayemiye pedagogicheskoy texnologii. –Moskva: Pedagogika, 1989. - 190 b.
13. Davletshin M.G. va boshqalar. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – T.: O'qituvchi, 1997. -134 b.
14. Yo'ldoshev J./. "Ta'lim yangilanish yo'lida". – T.: O'qituvchi. 2000. - 207 b.
15. Nishonaliyev U. Ta'lim standarti va pedagogik innovatsiyalar. // Xalq ta'limi. 1999. №6. 28-31 b.
16. Ochilov M.O. Muallim qalb me'mori. –T.: O'qituvchi. 2001. - 429 b.
17. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf. 2000. - 80 b.
18. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: O'z MU. 2003. - 66 b.
19. Saidahmedov N.S., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. –T.: XTV RTM, 1999. -55 b.


20. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash texnologiyalari. Toshkent: 2000 y. - 46 b.
21. Safarova R.G‘. Darslik – pedagogik tizimning axborot modeli sifatida. //Ta’limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar va yechimlar. – T.: 1999, 29-30 b.
22. Ta’lim texnologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1999. - 71 b.
23. Ta’limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar, yechimlar. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: 1999. - 212 b.
24. Tolipov O‘. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. – T.: Fan, 2004. - 167 b.
25. Tolipova J, Numonova N. Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiya // J.Xalq ta’limi. №3. 20-23 b.
26. Farberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘z.R.FA. Fan. 2000. - 128 b.
27. Yudin V.V. Pedagogicheskaya texnologiya. Ucheb. Posobiye. Chast I. – Yaroslavl: 1997. - 48 s
28. Quronov M. Yoshlarni milliy mafkuraviy tarbiyalash – texnologik masala //Ta’limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar va yechimlar. – T.: 1999, 32-37 b.
29. G‘afforova T va boshqalar. Ta’limning ilg‘or texnologiyalari. – arshi.: Nasaf. 2003. -112 b.
30. Haydarova O.Q. Yangi pedagogik texnologiyalarning o‘qituvchi faoliyatida tutgan o‘rni. // Pedagogik mahorat, 2-son, 2002.
31. Haydarova O.Q. Tafakkur va faoliyatga asoslangan ta’lim. //Xalq ta’limi, 2-son, 2003.
32. Haydarova O.Q. Oliy pedagogik ta’limga texnologik yondashuv asoslari. – Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2006.
33. Haydarova O.Q.Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash. Qarshi, Nasaf, 2008.



Ehtiyojlarni quyidagi piramida misolida tasavvur qilish mumkin:



Ehtiyojlarni qondirish uchun ta'lim jarayonini quyidagi bosqichlarga bo'lib chiqamiz:



## TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR

